

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
_____ dots. Musayev A.
“ _____ ” _____ 2012 y.

5141100-o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

“ONA TILI MASHG‘ULOTLARIDA MATN USTIDA ISHLASH”

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Normanova Gulshoda
Ilmiy rahbar: p.f.n.Q.M.Yadgarov.
Taqrizchi: f.f.n.Sh.Haydarov

BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI kafedrasi yig‘ilishining qarori bilan (Qaror №10.
7.05.2012). Himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri _____ p.f.n. Q.Yadgarov.
(imzo)

Jizzax-2012

ONA TILI MASHG‘ULOTLARIDA MATN USTIDA ISHLASH

REJA:

Kirish

1-bob. Ona tili darslarida matn va uni o‘rganish usullari

1.1. Matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

1.2. Matn yaratish va matn ustida ishlashning didaktik prinsiplari.

1.3. Ona tili ta’limining yangilangan mazmuni va unda matn yaratish muammosi talqini.

2-bob. Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirish

Xulosa

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Prezidentimiz I.Karimov ta'lim-tarbiya sohasida olib boriladigan ishlarning dasturilamali bo'lgan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" mohiyati haqida shunday degan edi: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydi. Agar bola erkin, mustaqil fikrlashni o'rganmasa, unga berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak, ammo bilim o'z yo'liga, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir¹".

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida ham umumiy o'rta ta'limning asosiy maqsadlaridan biri-mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Tafakkur va til hodisalarining bir – birini taqozo etishi, biri – birisiz yashay olmasligini nazarda tutsak, ijodiy tafakkur sohibi tarbiyasida ona tilining o'ta muhim va betakror vosita ekanligini ta'kidlab o'tirishning hojati yo'q. Zero, intellektual bilim, kasbiy mahorat, eng nodir kashfiyotlar ham birinchi galda ona tili yordamida dunyoga keladi, ona tilida zohir etiladi, ona tilida himoya qilinadi.

Mustaqil respublikamizda boshqa umumiy o'rta ta'lim fanlari qatori ona tili ta'limi sohasida ham ulkan o'zgarishlar, yangilanishlar voqye bo'ldi: "Davlat tili haqida"gi Qonun², "Ona tili ta'limi Konsepsiyasi"ning qabul qilinishi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun³ "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"⁴ ga asoslanib yaratilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining davlat ta'lim standartlari (UO'T DTS)ning ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq qilinishi shular jumlasidandir. Respublikamizda barkamol avlod

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T., "Sharq" 1998. 33-bet.

² Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили хақида"ги Қонун (Янги тахрирда). Халқ сўзи: 1995, 20-декабрь.

³ Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонун//Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т., "Шарқ", 1997. 20-29-бетлар.

⁴ "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури". – Т., "Шарқ", 2001. 662-бет.

tarbiyasiga, ijodkor, iste'dodli yoshlarni tanlash va ularga maxsus, chuqurlashtirilgan bilim berishga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur BMI ishi shu kunning eng dolzarb vazifalaridan biri – umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili ta'limining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishini ta'minlash, o'quvchida mavjud bo'lgan lug'at zaxirasi, nutqiy – intellektual qobiliyatni aniqlash, ijodiy tafakkur faoliyatini jadallashtirish, o'quvchida ravon nutq, mantiqiy fikrlash, fikr mahsulini yozma ravishda to'g'ri, izchil o'rinda ifodalash, egallangan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan mustaqil matn yaratishning universal texnologiyasi modulini ishlab chiqish, shu tizim asosida o'quvchining matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

Davlat ta'lim standartlari talabalari asosida ona tili o'qitishning bosh maqsadi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini yozma, og'zaki shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish ekan, demak, til o'qitish metodikasi fani oldida o'z yechimini kutib turgan navbatdagi dolzarb vazifa – o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish muammosining ijobiy yechimini topishdan iborat. Biz tanlagan ilmiy-tadqiqot mavzusi ana shu muammoning ilmiy – amaliy yechimini topish maqsadida amalga oshirildi BMI mavzusining dolzarbligi ham ana shu ilmiy-metodik zaruriyat bilan belgilanadi.

Bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlash va ijodiy matn tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalar (darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar, turli ishlanmalar, o'yin-darslar, tilimiz boyligini ochib berishga xizmat qiladigan maxsus asarlar)dan foydalanish metodikasini yaratishdan iborat;

- filologiyada, xususan, tilshunoslikda matn nazariyasi va uni o‘qitishni imkon qadar batafsil o‘rganish va umumlashtirishdan iboratdir;

- umumta’lim maktablarining ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish jarayonini takomillashtirish;

- ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirishda matn bilan ishlash, unda so‘z qo‘llash mahoratini izohlash, matn yaratish tizimining uzviyligini ta’minlashdan iborat;

- matnning til sathlari orasidagi o‘rnini ko‘rsatish, ya’ni matnning eng oliy til sathi ekanligini asoslashdan iborat.

Ishning metodologik asosi va metodlari. O‘zbekiston Respublikasi Islom Karimovning milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq qarashlari hamda diolektik falsafaning keng tarqalgan tadqiq usullari ishning metodologik asosini tashkil etadi. Masalani yoritishda hozirgi kunda o‘zbek filologiyasi, o‘zbek tilshunosligi va uni o‘qitish metodikasi qo‘lga kiritgan yutuqlardan ijodiy foydalanildi. Tadqiq jarayonida tavsiflash, qiyosiy- tasnifiy, kontekstual, komponent tahlil kabi yondoshuv usullariga murojat qilindi.

Bitiruv ishning obykti sifatida umumta’lim maktablarining ona tili ta’limi jarayoni, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati, umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi, darsliklar, qo‘llanmalar, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatish jarayonida matndan foydalanish va ularni o‘tish usullari belgilandi.

Bitiruv ishimizning tuzilishi. Ushbu bitiruv ishimiz kirish, ikki asosiy bob va xulosa qismidan iborat bo‘lib, -----sahifani tashkil etadi.

Ishning kirish qismida bitiruv ishning dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, metodologik asosi va obyekti haqida ma'lumot berildi.

Bitiruv ishning asosini ikki bob tashkil qilib, unda ona tili darslarida matn va uni o'rganish usullari, matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish haqida ma'lumot beriladi. Ishga qisqa xulosa va adabiyotlar ro'yxati yakun yasaydi.

1-BOB. ONA TILI DARSLARIDA MATN VA UNI O‘RGANISH USULLARI

1.1. Matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Respublikamizdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili ta’limi tizimida, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri, ravon ifodalash, o‘quvchilarda kommunikativ savodxonlikni ta’minlash vazifalarining Davlat ta’lim standartlari asosida tashkil etilishi o‘zbek tili o‘qitish metodikasi oldiga dolzarb vazifalarni qo‘ydi. Ular quyidagilar:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlari ona tili mazmunini takomillashtirish, darsliklardagi o‘quv mashqlarini o‘quvchida ijobiy o‘quv motivlarini hosil qiluvchi lingvopsixologik topshiriqlar darajasiga ko‘tarish.

2. Lingvopsixologik o‘quv topshiriqlari, muammoli vositalarni tanlash va bajarish jarayonida o‘quvchining o‘z hoxish – intilishlari, qiziqishlari, mustaqilliklari ustuvorligini ta’minlash.

3. O‘quvchi shaxsini o‘zi va o‘rtoqlari nutqiy faoliyatini muntazam ravishda tanqidiy nazorat qilishga odatlantirish, uning o‘z nutqiy – intellektual qobiliyatini namoyish qilishga qaratilgan subyektiv-instinktiv haraktini qo‘llab-quvvatlash.

4. O‘quvchiga og‘zaki va yozma nutq jarayonida so‘z va iboralarni to‘g‘ri tanlash, uni nutqiy vaziyat taqazosiga ko‘ra, o‘rinli ishlatish ko‘nikmalarini singdirish v.h.

Til shunday mo‘tabar “ne‘matki”, u insoniyatga tafakkur gulshanlari darvozasini katta ochib bergan, tengi yo‘q robitai olamiyondir¹.

XI asr sharqining buyuk allomasi Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida shunday bir hikoyatni aytadi: Bir kecha halifa Xorun ar-Rashid tush ko‘radi. Tushida uning barcha tishlari to‘kilib ketgan emish. Xalifa muabbirdan tushining ta’birini so‘raydi. Muabbir shunday deydi: -Ey amiralmo‘minin, sening oldingda barcha yaqinlaring, qarindosh-urug‘laring o‘ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi. Buni eshitgan Xorun ar-Rashid: “Mening yuzimga shunday qayg‘uli gaplarni aytding”, - deb uni yuz tayoq urishni buyuradi. Keyin boshqa muabbirni chaqirib, undan tushining ma’nosini so‘raydi. Muabbir bunday deydi: “Ey amiralmo‘minin, sening umring barcha qarindoshlaring umridan uzoq bo‘ladi.” Shunda xalifa Xorun ar-Rashid: “Barcha aqlning yo‘li birdir va har ikki ta’birning negizi bir joyga borib taqaladi, ammo u ibora bilan bu iboraning orasidagi farq bag‘oyat ko‘pdir” deydi va uni o‘z ulamolariga namuna qilib ko‘rsatadi.

Bu ibratli hikoyatda o‘zaro muloqot chog‘ida tilning qanday ahamiyat kasb etishi, u inson qalbiga yo‘l topishi sir – sinoatlarini ochib berguvchi sehrli kalit ekanligini bilib olamiz. Til – dil kaliti, degan maqol shundan qolgan bo‘lsa ajab emas. Rus olimi A.A.Potebnya fikrlash jarayonida so‘zning o‘rnini juda to‘g‘ri izohlab bergan edi: “Inson so‘z vositasida fikrlaydi, fikr esa so‘z vositasida tartiblanadi, voqelanadi, zohir bo‘ladi”.

Monografiyada so‘z yuritilayotgan mustaqil matn yaratish hodisasi ham inson tafakkuri mahsuli, uning o‘zgalar ongiga ta’sir etish vositalaridan biridir. Agar o‘quvchining so‘z boyligi nochor, lug‘at xazinasini qashshoq bo‘lsa, nasriy matn tuzish, mustaqil matn yaratish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Bizning asosiy maqsadimiz

¹ Нематов Х. Бозоров О., Тил ва нутқ, Т., “Ўқитувчи” 1999, 3,3-бет.

o‘quvchini nutqiy madaniyatga, muxtasar matn yaratishga o‘rgatish ekan, qarshimizdagi eng dolzarb vazifa – til satixlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish, ona tili mashg‘ulotlarida fanlararo aloqani mustahkamlash, uyadosh so‘zlar ustida ishlash orqali o‘quvchi so‘z boyligini oshirish, maqol, matal, hikmatli so‘z, ibora va tasviriy vositalar yordamida nutqiy zaxiralarni boyitishdan iborat. O‘quvchiga matn va uning gramatik xususiyatlari, tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), gap, obzas va MSB (murakkab sintaktik butunlik)lirni o‘zaro bog‘lovchi, uslubiy ravonlikni ta’minlovchi tanish belgilari, gramatik bog‘lamalar (olmoshlar, kirish so‘z va gaplar, modal so‘zlar) haqida to‘liq ma’lumot berish, ularni o‘quv amaliyotiga jadal tadbiiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Zero, “... lug‘at zaxirasi bisyor odamning tili biyron, nutqi ravon bo‘ladi..”¹.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijobiy fikrlashga yo‘naltirish, fikr muhsulini to‘g‘ri, ravon, o‘rinli ifodalashga o‘rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o‘quv amaliyotiga izchil joriy etish, o‘quvchini muammoli o‘quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf qilishga yo‘naltirish, o‘quvchi lug‘at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy faoliyatini shakllantirish, (so‘zning lug‘aviy ma’nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og‘zaki nutq va matn yaratish)da so‘zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o‘quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir.

Bu muammolar orasida o‘quvchilarda mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishning intensiv – universal texnologiyasini

¹ Зиёдова Т., “Ўқувчи китоби”, А.Қодирий номидаги халқ мероси наіриёти, Тошкент, 2002. 130-бет.

yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan, matn yaratishning jadallashtirilgan, bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga joriy etish masalasi alohida o‘rin tutadi. O‘quvchi so‘z boyligini oshirishning, uning nutqiy zaxirasini boyitishning eng samarali usuli sathlararo hamda fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish (undosh so‘zlar ustida ishlash, berilgan so‘zning leksik – semantik qurshovi: qaysi so‘zlar bilan ishlatilishi, xususiy belgilari miqdorini aniqlash, qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanishi, ularning nomlari soni, sifati, holati, harakatini belgilash v.h.) dan iborat. Demak, o‘quvchi nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirishning asosiy omillari tafakkur mahsulini izchil, to‘g‘ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyat talabiga ko‘ra mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Umuman olganda, DTS talablarini to‘la bajarish – o‘quvchi kommunikativ savodxonligini ta‘minlash masalasi, ona tili ta‘limida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Buning uchun egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarning jadal amaliy tatbiqi, ya‘ni mustaqil matn yaratish masalasi ona tili darslarida o‘rganilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn yaratishning mantiqiy davomi – matn ustida ishlash bilan esa matnning tili, mantiqiy va uslubiy shakllanganlik darajasi o‘rganiladi, o‘quvchining kommunikativ savodxonlik darajasi esa, matn yaratish mahoratini aniqlash jarayonida o‘z yechimini topadi.

Ona tilining yangi – yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topish va uni dars jarayoniga tadbiq etish o‘quvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e‘tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Turli til xodisalari (soʻz va iboralarni) maʼnosini toʻliq anglash va uning xususiy nutqda qoʻllashga intilish – ulardan nutqiy vaziyatga mosini tanlash oʻz fikrini ixcham, aniq va ravon ifodalash malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

Oʻquvchi taʼlim oʻqituvchi tizimida tomonlarning oʻzaro hamkorlik, subyekt – subyekt munosabatlari faollashadi, DTS talablariga koʻra oʻquvchi ham taʼlim jarayonining faol subyekti sifatida oʻzi mustaqil faoliyat yuritishi: izlanishi, kuzatishi, bajarilgan ishni tahlil qilish, xulosalashi, baho berishi lozim boʻladi.

Shunday qilib, oʻquvchi va oʻqituvchi oʻrtasidagi doimiy ishonch oʻzaro hamkorlik faoliyatigina oʻquvchilarda mavjud boʻlgan mustaqil va ijodiy tafakkurni qoʻzgʻatishi, matn yaratish koʻnikmalarini shakllantirishi hamda rivojlantirishi mumkin.

Oʻqituvchi oʻz oʻquvchilarining dars jarayonidagi ilmiy-amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish – avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga – mustaqil matn yaratishga yoʻnaltira bilishi uchun har bir dars rejasi va dars mavzusi bayonini puxta oʻrganib chiqishi, darslikdagi amaliy mashqlar yetarli boʻlsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilish, kamroq boʻlsa, yangi, qiziqarli mashq namunalarini tanlab, qoʻshimcha mashgʻulot sifatida mavzuviy rejaga kiritishi, darsni oʻzaro musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydali. Oʻqituvchi doimiy ravishda oʻz oʻquvchilarini oʻquv amaliyoti jarayonida oʻrganganlari yuzasidan oʻz xulosalarini aytib berishga undashi, ular tomonidan kiritilgan izlanuvchanlik ruhidagi ijodiy taklif va mulohazalarni, oʻz “men”i, iqtidori, isteʼdodini namoyish qilishga boʻlgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijobiy-kashfiyotchilik harakatlarini ragʻbatlantirib borishi, ularga zaruriy shart – sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi (monologik bellashuvlar (quvnoqlar va zukkolar klubi bellashuvi), turli

shakl va mazmundagi (nutqiy mahoratni shakllantiruvchi) ko‘rik-tanlovlar, debatlar), lozim bo‘lsa, o‘quvchi shaxsini ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi zarur bo‘ladi. O‘qituvchi shu tariqa nafaqat o‘quvchi bilimini, balki o‘zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtira boradi: o‘quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshilmaslik, o‘z vazifasiga mas’uliyat hissi bilan yondashish, o‘zida intellektual salohiyatni o‘quvchi bilan baham ko‘rish, o‘zida bag‘rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o‘rganadi. Ona tili o‘qituvchisining o‘quvchi shaxsiga ana shunday ijobiy va ijodiy yondashuvigina, o‘quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, erkin va mustaqil fikrlashga, o‘quvchi uchun juda muhim va zarur hisoblangan til hodisalarini tushunish, undan amaliy foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi.

“Ona tili ta’limi mazmuni” o‘quv-metodik qo‘llanmasi mualliflari H.Ne’matov, A.G‘ulomovlar o‘quvchilarni ijodiy yozma ish – matn ustida ishlashga o‘rgatishda egallangan bilimlarni quyidagi ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar¹.

-“Ijodiy yozma ish” (matn) tushunchasi: rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa – buyum, voqyea – hodisa tasviri;

-o‘quvchi (muallif) va borliq; yozma ishning maqsadi; yozma ish – o‘quvchining (muallifning) o‘zligi;

- yozma ishga mavzu tanlash; uni tayyorlash; ayni bir narsa (buyum, manzara, voqyea - hodisa) hamda turli mavzuda matn yaratish;

-yozma ish mazmunining mavzuva uning nomlanishi bilan uyg‘unligini ta’minlash;

-berilgan mavzu, erkin mavzu ustida ishlash;

¹ Гуломов А., Неъматов Х. Она тили таълим мазмуни, Т., “Ўқитувчи”, 1995.

-mavzuni yoritish uchun zarur material: o‘quvchining bilimlari, kuzatishlari, taassurotlari, mushohadalari, qiyos va o‘xshatishlari, hukm va xulosalari;

-yozma ishning rejasi, unga qo‘yilgan asosiy talablari;

-tor reja, keng reja;

-manzilgohni yozish;

-mavzuni yoritishda mazmun izchilligi; “xat boshi” tushunchasi; yozma ish matni ustida qayta ishlash; uyadosh, ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli so‘zlardan foydalanish;

-matnning uslubi (gap qurilishi), imlosi va tanish belgilari ustida ishlash;

-ishni oqqa ko‘chirish;

-xatolar ustida ishlash v.h.

1.2. Matn yaratish va matn ustida ishlashning didaktik prinsiplari.

Ta’limning rivojlanuvchi va takomillashibboruvchi texnologiyasi boshqa fanlar qatori ona tili ta’limida ham keng miqyosdagi umumpedagogik vazifani bajaradi. O‘quvchi nutqiy mahoratining yuksalib borishi – ona tili ta’limi mazmuni, o‘quv jarayoni va uning to‘g‘ri shakllantirilishiga bog‘liqligi isbot talab qilmaydigan haqiqat bo‘lsa, nutq tilning ifoda vositalaridan foydalangan holda voqeylikka aylangan fikrdir. U nutq a’zolarining ongli harakati jarayonida paydo bo‘ladi. Ruhiiy hodisa bo‘lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o‘tgach, haqiqatga aylanadi. Demak, nutqning vazifasi – ong, xotira va tafakkurning uyg‘unlikdagi faoliyati mahsulini barcha uchun tushunarli, adabiy me’yoriy shaklga kiritish, uni moddiylashtirish (axborotga aylantirishdan) va tinglovchiga yetkazishdan iborat.

Shu bilan bir qatorda ona tili o‘qitish metodikasi lingvodidaktik asoslarga ham egaki, bunda til birliklarini nafaqat grammatik xususiyatlariga, balki lug‘aviy ma’nolariga ham asoslangan holda o‘rganish, umumiy va xususiy hodisalarni fikrlash, so‘z boyligini oshirish, og‘zaki nutq, mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish, uning rang-barangligi va uslubiy ravonligiga erishish ko‘zda tutiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili tarkibiga o‘zbek tilshunosligining keyingi yutuqlaridan hisoblangan uyadosh so‘zlar guruhi¹ tushunchasini kiritishni nihoyasiga yetkazish, uni til o‘qitish metodikasida o‘quvchi so‘z boyligini oshirish va boyitish maqsadlarida qo‘llash – tilning lug‘aviy vositalaridan foydalanish uchun o‘quvchiga qulay sharoitlar yaratadi, mustaqil fikr ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi, shu puytgacha an’anaviy ona tili darsliklarida berilmagan, uyadosh so‘zlar ustida ishlash amaliyoti o‘quvchining lug‘at zaxirasini kengaytirish va matn mazmunini mukammal shakllantirish BKMLarini egallashga hizmat qiladi.

Sistem tilshunoslikning leksikologiya (so‘zshunoslik) bilimiga taalluqli bo‘lgan **UYADOSHLIK HODISASI**, uning yangilangan ona tili ta’limi mazmuniga kiritilishi, til o‘qitish metodikasining qon tomiri hisoblangan o‘quvchi so‘z boyligini oshirish va boyitishda yangi, serqirra va mahsuldor imkoniyatlar majmuasini kashf qilinishiga – uyadosh so‘zlar ustida ishlashning o‘ziga xos texnologiyasini yaratishi va ta’lim amaliyotiga joriy etilishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Undoshlik hodisasi, uning ta’limiy – rivojlantiruvchi mohiyati ona tili o‘qitish metodikasi fanida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili ta’limi jarayonida uyadosh so‘zlar ustida ishlash – o‘quvchi so‘z zaxirasini boyitish, ijodiy tafakkurini kengaytirish, muayyan yo‘nalishda izlanish va “kashfiyot” qilishga yo‘l ochib berish bilan bir qatorda, o‘quvchi ongiga bir uyaga, bir turga, bir

¹ ...Бир уя, бир мавзу, бир сохага оид, бир-бирини такозо этувчи ва тўлдирувчи сўзлар сираси. Ғуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни, Т.: “Ўқитувчи”, 1995.

guruhga mansub soʻzlar majmuasi va ularni ajratib, alohidalab turgan leksik – semantik qurshov haqidlik nazariy tushunchalar hosil qiladi. Shunday topshiriqlar ustida ishlash orqali oʻquvchi xotirasida berilgan soʻzning ishlatilishi doirasi, ona tili sathilari va taʼlim muassasalarida oʻqitiladigan boshqa fanlar bilan oʻzaro aloqasi (sathlararo va fanlararo aloqa), soʻz birikmalari tarkibida hokim yoki tobe holatda kelishi, ularning gap va matn tarkibida ifodalanishi haqidagi dastlabki amaliy tushunchalar, bilim koʻnikma va malakalar shakllanadi, tarkib topadi. Oʻquvchining uyadosh soʻzlar ustida mustaqil ishlashi muayyan bir soha va uning atamalari doirasida izlanish, mantiqiy mushohada yuritish, oʻzi uchun yangi, notanish boʻlgan soʻzlarni kashf qilish faoliyati bilan shugʻullanishdir. Bunday faoliyat esa tabiat qiziquvchan, ijodkor bola uchun haqiqiy ilmiy – tadqiqot dunyosiga qadam qoʻyish bilan barobar. Bunday kichik “tadqiqot”lar natijasida oʻrganuvchi subyektning bilish faoliyati jadallashadi, mustaqil matn yaratishning, ijodiy fikrlashning mahsuldor manbalari boʻlmish lugʻat zaxirasi kengayadi (atama va tushunchalar muayyan belgilar asosida guruhlarga birlashadi, guruhlar majmuasini kuzatish, tahlil qilish orqali esa oʻquvchi ongida yaxlit bir mazmun – berilgan soʻz va uning uyadoshlari vositasida berilgan mavzu doirasida oʻnlab gaplar quriladi hamda oʻquvchi ongida matn loyihasi shakllanadi, yaʼni, ushbu jarayon subyektning bilish jarayoni ketma – ketligi bilan uygʻunlashadi).

Mazkur texnologiya umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ona tili mashgʻulotlarining samaradorligini oshirish, darsni zamonaviy, interfaol metodlar asosida tashkil qilish, oʻquvchi lugʻat zaxirasini soʻz gavharlari bilan boyitishning ishonchli va samarali vositasiga aylandi. Ona tili darslarida uyadoshlik hodisasidan keng va izchil foydalanish – oʻquvchi ilmiy dunyoqarashining kengayishi, unda mustaqil fikrlash, nutqiy

taraqqiyot jarayonining tezlashuvi, nutqiy barkamollik hamda til ta'limidagi eng dolzarb masala – mustaqil matn yaratishga yo'naltiruvchi BKM manbalarining paydo bo'lishi, tug'ilishi, so'z, so'z birikmalari, tasviriy vositalar holatida shakllanishi va o'quvchi nutqida voqelanishiga sabab bo'ladi. Uyadosh so'zlar ustida ishlash qamrovini kengaytirish, shunday ko'nikma va malakalar hosil qilish bilan muntazam shug'ullanish esa o'z navbatida o'quvchi tomonidan yaratiladigan matnning tili ravon, boy va mazmundor bo'lishiga, matn tarkibidagi imloviy, uslubiy, tavnologik (qaytariq) xatolarning kamayishiga olib keladi, o'quvchi shaxsini o'z "men"ini anglab yetishiga, izlanish va ijod qilishga, o'z nutqiy mahoratini rivojlantirish uni o'zgaralar oldida namoyish qilishga undaydi. Ze'ro, umumta'lim maktablari o'quvchilarini matn yaratishga tayyorlash jarayonini o'quvchini ijodiy matn yaratishga yo'naltirishning zamonaviy texnologiyasini sathlararo va fanlararo aloqalarsiz, uyadosh so'zlar ustida ishlash topshiriqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Uyadosh so'zlar ustida ishlash – ona tili o'qitish metodikasi (didaktikasi) uchun yangi, o'quvchining mustaqil matn yaratish faoliyati uchun mahsuldor texnologiya (keng qamrovli ijodiy tafakkur, boy lug'aviy va sintaktik manba, nutqiy rang-baranglik, atamalar ro'yxatining belgi, miqdor, harakat va holat tushunchasiga ko'ra kengayishi) hisoblanadi.

Berilgan mavzuga oid uyadosh so'zlar topish, yaratilajak matnning asosiy lug'aviy manbasini ta'minlash bilan bir qatorda o'quvchiga matn mazmuni, uning tarkibiy qismlari, xatboshlarini to'g'ri shakllantirish ko'nikmalarini egallash, milliy lug'at xazinasiga to'g'ri tarafdin erkin kirib borish va maqsadli harakatlanish (ya'ni, ijodiy fikr ifodalash uchun eng maqbul so'zni tanlash) imkoniyatini beradi va u, o'quvchi uchun bo'lg'usi matn asosini yaratishning ishonchli vositasidir.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari yuqori sinf oʻquvchilari, kasb-hunar kollejlari oʻquvchilarining lugʻat xazinasini uyadosh soʻzlar bilan boyitish, berilgan umumiy maʼnoli soʻzning xususiyatlarini topish, yoki, aksincha, soʻzlarni muayyan uya (mas., daraxt, shaxs) asosida guruhlash, berilgan matndan uyadosh soʻzlarni ajratish, ular ishtirokida soʻz birikmalari (SB) hosil qilish, uyadosh soʻzlar va SBlar ishtirokida gap tuzatish, maʼlum bir mavzuda matn yaratish kabi ijodiy – amaliy topshiriqlarni muntazam ravishda, tafakur operasiyalarining sintetik jihatini faollashtirishga oʻrgatishda muhim, rivojlantiruvchi omil boʻlib xizmat qiladi.

Quyida uyadosh soʻzlar sathidagi bilim, koʻnikma va malakalarni mustahkamlovchi topshiriqlardan namuna beramiz.

Mustaqil ish: “Dori” atamasining xususiy uyadoshlarini toping va ular maʼnosini sharxlang. (ular yordamida ixtisosiy matn yarating).

(“Dori” atamasi bilan bogʻliq leksik – semantik qurshov)

Dori ishlatuvchi mutaxassis nomi: Kasb-hunar otlari: Ot+ot	Dorilar ishlatuvchi muassasalar nomi: tashkilot nomlari Ot+ot	“Dori” soʻzining maʼnodoshlari va xususiy nomlari: sifat+ot	Dorivor meva va oʻsimliklar nomi: Ot+ot	Kasallik nomlari: Harakat nomi, ot, Ot+ot	Davo muolaja usullari nomlari: harakat nomi, ot+feʼl
Vrach, terapevt, urolog, ginekolog, nevroptolog, onkolog, hamshira, lor, xirurg,	Shifoxona, kasalxona, tugʻruqxona, profilaktoriy, sanatoriy, ambulato-riya, tez yordam v.h.	Qaynatma, linement, malham, ilon zahari, tabletka, rinza, mezim, noshpa v.h.	Jiyda, bodom, behi, olma, xurmo, aloe, achchiqmiya, moychechak, v.h.	Kuyish, shamollash, zotiljam, raxit, terlama, tumov, buqo, gippatit,	Massaj, parafin quyish, balchiq bilan davolash, bugʻlash, malham bogʻlash, v.h.

psixolog, ortoped, v.h.				grip, v.h.	
Dorini tayyorlash jarayoniga oid soʻzlar: Harakat nomi, feʼl	Muolaja usuli, tartibi miqdoriga oid soʻzlar: ot+feʼl,ravish +f, son+fel	Dorini saqlashga oid soʻzlar: ot+ot,sifat+ ot	Bemor holatini tasvirlash soʻzlari: sifat;ot	Dorining taʼsirini sharxlovchi soʻzlar: Feʼllar, ot,kesim	Dorining belgilari: (holati, rangi, shakli, taʼmi, hidi) Sifatdosh sifat
Terish saralash quritish, maydalash, ezish, tuyish, qizdirish, eritish,ivitish, qaynatish,v.h	Til ostiga tashlanadi, chaynab yutiladi, surtiladi, kompress qilinadi, bir kunda 1(2,3)mahal ichiladi v.h.	Qogʻoz paketda, sellofan paketda, shisha idishda, qogʻoz qutida, folʻgada, sovutgichda v.h.	Isitmasi: yuqori, meʼyoriy,yuzi : qizil, oppoq, koʻk... qonsiz, ogʻir, xushsiz, tili,oq pushtiqizilv.h	Issigʻini tushurdi, qon bosimini tushurdi, (koʻtardi), ahvoli yaxshilandi, yomonlashdi koʻzini ochdi,ogʻriq bosildi.v.h.	Tuyilgan, eritilgan, ezilgan, sovutilgan dumaloq. yapaloq, qobiqli, quyuq, suyuq, achiq, oq, qizil,sariq,v.h.

Bunday topshiriqlar koʻproq umumtaʼlim maktablarining yuqori sinf oʻquvchilari, kasb-hunar (tibbiyot) kollejlari oʻquvchilarining soʻz boyligini oshirishga, ona tilidan egallangan individual bilim, koʻnikma va malakalari darajasini aniqlash va rivojlantirishga, asosan ixtiyoriy matnlar yaratishga xizmat qilishi hisobga olinsa, ulardan egallangan BKMLarning amaliy tadbirini nazorat qilish ishlarida foydalanish, yoki uyga vazifa sifatida berish maqsadga muvofiq boʻladi:

Mazkur jadvalda 12 ta belgi – yoʻnalish doirasida uyadosh soʻzlar guruhlangan. Mustaqil topshiriqni bajarish jarayonida oʻquvchi yozgan

soʻzlarning soni 100 dan oshgan boʻlsa, oʻylab, oʻz xotirasida tiklagan, analiz va sintez qilgan, topshiriq talabiga javob bermaganligi uchun qogʻozga tushmagan soʻz va atamalar soni bilan qoʻshib hisoblaganda oʻquvchining oʻz xotirasida qayta tiklagan tushunchalari soni 200 dan oshib ketadi. Yuqorida namuna sifatida keltirilgan uyadosh soʻzlar ustida ishlash texnologiyasiga oid mustaqil topshiriqdan koʻzlangan asosiy maqsad oʻquvchi lugʻat zaxirasini oshirish va boyitish, bilan bir qatorda tilning cheksiz imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishdir. Uyadosh atamalar ishtirokida soʻz birikmalari va gaplar tuzish topshiriqlari, oʻquvchini ixtisosiy matn yaratishga oʻrgatish, lisoniy imkoniyatlar (uyadoshlik xodisasi) dan samarali foydalanishga odatlantirishdir.

Shu sababli ona tili taʼlimi mazmunini belgilashda oʻquvchining muloqot koʻlami va darajasi, ijodiy tafakkuri, fikr ifodalash ehtiyoji bilan, tavsiya qilingan til vositalari orasidagi mutanosiblik hisobga olinishi yoki aksincha, oʻrganilishi lozim boʻlgan til vositalari va meʼyorlari miqdorini aniqlashda oʻquvchi shaxsining yosh psixologiyasi, tafakkur qobiliyati, savodxonlik darajasi, oʻzaro muloqot ehtiyoji, rivojlanish koʻlami hisobga olinishi lozim. Shuningdek, ona tili darsliklarida til mazmunining izchilligini taʼminlash, matn yaratish topshiriqlarini tilning ifoda imkoniyatlarini, oʻquvchining mantiqiy tafakkur xususiyatlarini hisobga olgan holda, muayyan tartibda berish, bolaning koʻrish, eshitish, fikrni anglash, analiz va sintez qilish imkoniyati, bosqichma – bosqich fikrlash va fikrni rivojlantira bilish koʻnikmasi hisobga olinishi lozim. Buni amalga oshirish uchun, aniq predmetlarni ifodalovchi soʻzlar, ular tarkibidagi nutq tovushlari, boʻgʻin, boʻgʻin koʻchirish va urgʻularni bosqichma – bosqich oʻrgatib borish, soʻngra aniq maʼno va yagona shaklga ega boʻlgan til vositalaridan (mustaqil soʻz turkumlari) maʼnodosh (sinonim), uyadosh (bir mavzu, bir oila, bir guruh, tir turga, bir paradigma, qurshovga kiruvchi

soʻzlar), zid maʼnoli (antonim) soʻzlarni hosil qilish koʻnikmalarini shakllantirish yaxshi samara beradi.

Ona tilidan yangi avlod oʻquv adabiyotlarini yaratishda lingvopsixologik qonuniyatlarga amal qilish, ijodiylik hamda mantiqiy izchillikni taʼminlash nihoyatda zarur. Ona tili taʼlimi mazmuning bunday tizimda belgilanishi taʼlim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda til oʻrganish vositalarining taʼlim jarayoniga dadil kirib kelishi, undan unumli foydalanish usullarining yaratilishi (interfaol oʻqish metodlari), til oʻqitish metodikasining jadal rivojlanishiga sabab boʻladi.

Oʻzbekiston respublikasi Oliy majlisining 19 sessiyasida Prezident I.Karimov malakali kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy psixologiyaning ham alohida oʻrni borligini taʼkidlab oʻtdi.

Darhaqiqat, yetuk, barkamol kadr boʻlib yetishish uchun oʻquvchi nafaqat oʻz iqtidori, bilimi va nutqiy malakasini oshirishi zarur, balki oʻzi yashayotgan jamiyatning turlicha ijtimoiy munosabatlar tizimiga tayyor boʻlmogʻi, ijtimoiy faoliyat yuritish va uni boshqarishning ilmiy qonuniyatlari va qoidalarini mukammal egallamogʻi zarur. Boshqaruv, marketing va menejment sohalarida, ayniqsa inson omili va unga taʼsir oʻtkazish, uni boshqarishning psixologik tizimini bilish – jamiyatda sogʻlom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish – uni kamol toptirish yoʻlidir. Bu oʻrinda, ayniqsa, ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va ilmiy-ijodiy munosabatlarning shakllanishini, oʻquvchi shaxsining oʻziga va oʻzgalarga taʼsir etish mexanizmlaridan biri – ijtimoiy muloqot va uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi boʻlmish nutq sharoitiga mos ravishda toʻgʻri va ijodiy fikrlash, mustaqil matn yaratish texnologiyasini mukammal egallashi davr talabidir.

Matn yaratishga yoʻnaltiruvchi lingvopsixologik oʻquv topshiriqlari tizimini ona tili taʼlimiga keng joriy etish, oʻquvchi ongida soʻz boyligini

oshirish, qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil fikrlash, soʻz tanlash va mustaqil fikr bildirish ehtiyojini hosil qilishga yordam beradi. Shunday koʻnikma va malakalarni uzluksiz shakllantirish va rivojlantirish esa, oʻquvchi nutqiy mahoratining oshib borishi, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur koʻlamining kengayishi hamda matn yaratish koʻnikmalarining avtomatlashuviga xizmat qiladi.

1.3. Ona tili taʼlimining yangilangan mazmuni va unda matn yaratish muammosi talqini.

Taʼlim mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va, ayni paytda, eng dolzarb masalalardan biri boʻlib turibdi. Chunki insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida “Nimani oʻqitish kerak” degan savolga javob izlash bilan shugʻullanadilar va hali-hamon bu savolga toʻliq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yoʻq. Didaktikaning soʻngi yutuqlarini oʻzida jam qilgan, taʼlim mazmuni boʻyicha berilgan va berilayotgani eng yangi maʼlumotlar ham bundan mukammallikka davo qila olmaydi. Biroq muammoni ijobiy hal qilishga intilish, mustaqil, erkin fikrlovchi maʼnaviy barkamol insonning tarbiyalashning eng ilgʻor, zamonaviy metodlari, usul va vositalarini topishga boʻlgan harakat hech qachon toʻxtagani yoʻq va u inson zoti mavjud ekan toʻxtamaydi. Chunki, odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida betoʻxtov ilgarilab boraveradi.

Barcha rivojlangan davlatlarda taʼlim mazmuni davlat va jamiyat taraqqiyoti va talablariga koʻra, pedagogik texnologiyalarning soʻngi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi. Taʼlim mazmunini shakllantirish 5 ta muhim tarkibiy qismlar (4-jadval) hisobiga amalga oshiriladi:

I. O‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan ilmiy – nazariy bilimlar tizimi (til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta’riflar).

II. Tanlangan ilmiy – nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko‘nikma va malakalar tizimi (ko‘nikma – egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, malaka esa, muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvidir).

III. O‘quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatish. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va to‘liq ijodiy darajada bo‘lishi mumkin.

Qayta xotirlash faoliyati – o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir. Bu esa o‘rganuvchining faollik darajasini chegaralaydi. U izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi.

Qisman izlanuvchanlik faoliyatida o‘quvchi yo‘naltiruvchi topshiriqlar yordamida til xodisalarining o‘xshash va farqli tomonlari ustida o‘ylashi, uni topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma’lum sharoitlarda qo‘llashi mumkin.

Ilmiy – ijodiy faoliyatda o‘quvchi hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda, masalan, kompyuterda qo‘llay olishi, faoliyat uchun zarur bo‘lgan, lekin o‘zida bo‘lmagan bilimlar manbasini topa bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqozosiga ko‘ra, o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini egallashi talab qilinadi. O‘quvchini ijodiy faoliyatga qiziqtirish, uning matn yaratishga bo‘lgan har qanday urinishini qo‘llab – quvvatlash tajribasiga qanchalik ko‘p asoslansak, ta’limning samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

IV. O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi. Bu munosabatlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi maqsadga intilishdagi sheriklik, o‘zaro tenglik, hamkorlik, muhokama, qiyosiy tahlil, to‘g‘ri hukm va xulosaga asoslanmog‘i lozim. Ta’lim mazmunining bu tarkibiy

qismlari chiziqsimon birin-ketinlikda joylashgan xodisalar emas, balki aylanasimon yaxlitlik bo‘lib, bu aylananing boshlanish va tugallanish nuqtasi birinchi va beshinchi qismlari, aylana doirasi esa ijodiy-amaliy ko‘nikmalar zahirasini tashkil etadi.

V. O‘quvchida mustaqil fikrlash, fikr ifodalash va matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi.

Nutqiy – amaliy ko‘nikmalar zanjirining eng muhim, yakunlovchi halqasi o‘quvchida mustaqil fikrlash, fikr ifodalash va matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi ustida ishlash – o‘quvchi nutqiy iqtidori, matn yaratish ko‘nikmasining malakaga aylanishi, tafakkur mahsulining moddiylashuvidir.

Boshqacharoq aytganimizda tafakkur, nutq, matn yaratish xodisalarini o‘zaro uyg‘unlik va uzluksizlikda, til bo‘limlari va boshqa fanlar bilan mustahkam aloqadorlikda, yozma fikr ifodasini yengillashtiruvchi muayyan bir tizimda o‘rganish kommunikativ savodxonlikning eng so‘nggi natijasi – ijodiy matn yaratish va uni mustaqil tahrir qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

O‘quvchilar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida DTS talablari bo‘yicha belgilangan ona tili o‘qitish mazmuni va undagi matn ustida ishlash va matn yaratish mavzusi yuzasidan quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari lozim:

Grammatikaga oid bilimlarni egallash – fonetika, leksikologiya, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya va sintaksis, yozuv va imlo, tanish belgilari nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalarni o‘rganish, ular amaliyotiga oid BKMLarni egallash;

-birinchi yo‘nalish: - O‘quvchilarning lug‘at zaxirasini kengaytirish va boyitish, so‘zning lug‘aviy ma’nolari ustida ishlash (uyadosh so‘zlar, ma’nodoshlar, zid ma’noli, shakldosh, tarixiy, olinma so‘zlar v.h.),

o‘quvchi uchun notanish bo‘lgan so‘zlar ma’nosi va qo‘llanish doirasini aniqlash;

-ikkinchi yo‘nalish; - o‘zbek adabiy tili me’yorlari, to‘g‘ri talaffuz, to‘g‘ri yozish, so‘z tanlash, so‘z birikmalari hosil qilish, gap tuzish me’yorlari, til birliklarining uslubiy imkoniyatlari xususan, uyadoshligi (bir mavzu, guruh va uyaga mansub so‘zlar, fanlararo va sathlararo aloqa) va ma’nodoshligi (sinonimiyasi); mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni to‘g‘ri aniq ravon ifodalash, gramatik sinonimiya (frazologik sinonimiya, lug‘aviy sinonimiya, qo‘shimchalar sinonimiyasi, gap va matn sinonimiyasi) namunalari ustida ishlash, ifodali o‘qitish (qiroat san’ati) bilan shug‘ullanish;

-uchinchi yo‘nalish: - O‘quvchilarda fikr mahsulini og‘zaki va yozma ravishda izchil, to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini egallash, matn tahlili, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi¹.

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi faoliyati

Fan olimida modellashtirish atamasi tabiat va jamiyatning turli obyektlarini o‘rganish usuli sifatida keng qo‘llanilmoqda. Iqtisodiy aloqalar, biologik, fiziologik jarayonlar, ijtimoiy strukturalar, texnik vositalar, ekologik vaziyatlar va til xodisalari modellashtirilmoqda.

O‘qituvchi faoliyati moduli muallifi N.Saidahmedov o‘qituvchi faoliyati strukturasini anchagina mukammal yorita olgan. Unda o‘quvchi faoliyatiga alohida ahamiyat berilgan va u birlamchi mavqega ko‘tarilgan. N.Saidahmedovning fikricha, darsning natijasi bevosita o‘qituvchi shaxsiga, uning shaxsiy fazilatlari-yu, sifatlariga chambarchas bog‘liq emas! Aslida ham yangi texnologiya bilan ishlayotgan o‘qituvchi asosan ta’lim jarayonini, o‘quvchi faoliyatini boshqarish, nazorat qilish bilan shug‘ullanadi.

¹ Она тилидан янги тахрирдаги Давлат таълим стандартлари, ўқув дастури ва мавзуй режалаштириш. Тузувчилар. Р.Сафаров., Р.Йўлдошев., М.Мирмахсудова. – Т., 2004 й.

Albatta, biz bu bilan dars sifati va samaradorligi o'qituvchi shaxsiga butunlay aloqador emas, deyishdan yiroqmiz. O'qituvchining ijobiy fazilatlari, dars berish mahorati qancha kuchli bo'lsa, o'quvchi faoliyati shunchalik samarali bo'lishi shubhasiz, biz aytmoqchi bo'lgan fikr boshqa. Zamonaviy texnologiya asosida o'tilgan darsning ijobiy samarasi – o'qituvchi shaxsi va uning pedagogik mahorati mahsuligina emas, balki unda o'quvchining, ya'ni o'rganuvchi subyektning ham ilmiy izlanishlari, ijodiy o'quv faoliyati, katta-kichik kashfiyotlari yotadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hukmronlik qilayotgan bugungi kun ta'limida noan'anaviy interfaol usullar, yangicha yondashuvlar, doimiy ravishda rivojlanib, takomillashtib boraveradi va bunday darslarda o'qituvchi shaxsi hukmronlikdan boshqaruvchilik tamoyiliga o'tadi.

Asosiy talab dars rejasida ko'rsatilgan faoliyat turlarining maqsadga muvofiq, aniq va mukammal bajarilishi-dir. Zero, zamonaviy darslarda faol ishlovchi – o'quvchi, uning yo'naltiruvchi topshiriqlar, mustaqil izlanishlar natijasida egallagan BKMLari, ularning o'quvchi nutqiy faoliyatiga, matn yaratish madaniyatiga ijobiy ta'siri – DTS talablarida ko'rsatilgan “ijodiy tafakkur sohibi”ga mos va xos bo'lgan natijadir.

Demak, N.Saidahmedovning o'qituvchi faoliyati modeli noan'anaviy usullarga va yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars tabiatiga ham mos keladi. Binobarin, u zamonaviy ona tili darsi strukturasiidan mustahkam o'rin olgan va biz tavsiya qilayotgan ongli verbal – kognitiv ta'lim tizimiga mohiyatan zid emas. Chunki OVKT tizimida ham o'qituvchi shaxsi emas, balki uning maqsadli faoliyati, ya'ni tanlash, yo'naltirish, nazorat qilish, xulosalashi muhim o'rin tutadi.

Ko'rinadiki, o'qituvchi faoliyati modeli va OVKT ta'lim tizimi bir – birini inkor qilmaydi, aksincha, bir-birini to'ldiradi, zamonaviy ta'lim

jarayonini, undagi subyektlarning o‘rni, roli, funksiyalarini to‘g‘ri tushuntirishga yordam beradi.

Prezidentimiz I.Karimov an’anaviy ta’lim tizimi haqida to‘xtalar ekan: “... maktablarimizda bolalar mustaqil fikrlashga o‘rgatilmashligi, ta’lim jarayonida o‘quvchi passiv tinlovchi, o‘qituvchining faol ishlovchi, hukmron ekanligi...”ni qattiq tanqid ostiga oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi bitiruvchisining (9-sinf) erkin fikrlash, mustaqil matn yaratish malakalari, sifati va darajasi ona tilidan DTSlari talabiga javob beradimi? Bu borada ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish qay ahvolda?

Mustaqil yaratilgan badiiy matn – o‘quvchining imlo savodxonligi, ijodiy tafakkuri, so‘z boyligi, nutqiy salohiyatini namoyish etuvchi ko‘zgu, aks sado. Chunki o‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari, ularning amaliy tadbiqu – o‘quvchining o‘zi mustaqil yaratgan matndagina o‘z ifodasini topadi. Zero, o‘quvchining suhbatdosh fikrini qabul qilish va o‘z fikrni ifodalashga qaratilgan ehtiyoji asosiga qurilgan amaliy faoliyatiga ona tilidan egalagan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, kommunikativ savodxonlik darajasining oshib borishi, matn yaratish ko‘nikmalarining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ana shunday faoliyatgina ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish bo‘yicha DTS talablariga mos keladi va o‘quvchida ijobiy o‘quv motivlarini hosil qiluvchi muhim didaktik vosita vazifasini bajara oladi.

Demak, mustaqil matn yaratish darajasi (o‘quvchi ongida nutqiy tafakkurini kengaytirish, rivojlantirish va mustaqil matn yaratishga yo‘naltirilgan lingvopsixologik o‘quv topshiriqlar: rasmlil nutqiy vaziyatlar, muammoli savol va masalalar, qiziqarli dizayn; elektron slayd va versiyalar, axborot texnologiyasi bilan to‘yintirilgan ta’limiy – didaktik vositalar yordamida shakllantirilgan) egallangan BKMLarning amaliy

tatbiqi darajasini aniqlashga xizmat qiladigan me'yorlar tizimida aks etishi kerak.

2-BOB. MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI O‘STIRISH

*Garchi azim daraxt bo‘lsa, til
Matn undan yaralgan hosil.*

Millat tafakkurini rivojlantiruvchi, undagi milliy mafkura, ma’naviy barkamollik, intellektual salohiyatini ko‘rsatib turuvchi asosiy mezon-tildir. Til barqaror hodisa, nutq esa beqaror-vaqtinchalik, u alohida shaxsning muayyan makon va zamondagi individual – intellektual ko‘rsatkichlari: ilmiy-ijodiy tafakkuri aloqa –aralashuv, ijtimoiy –siyosiy ehtiyojlarini kafolatlovchi, xususiy muloqot, ta’sir va aks ta’sir natijasini voqelantiruvchi bosh vosita sanaladi.

Insoniyatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan ilmiy manbalarni avlodlarga meros qilib qoldirish uchun birdan-bir, yagona imkoniyat-matn esa kashfiyotdir, til umumiyliigi, matn esa xususiyliigi bilan go‘zal, til ijtimoiy muloqot mahsuli, matn – ijodiy tafakkur mahsuli, hazrati inson yaratilqlarining majoziy ramzi, aks sadosidir.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida davlat ta’lim standartlarining ishlab chiqilishi, umumiy o‘rta ta’lim yo‘nalishi, maktab ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari oldiga ulkan vazifalarni qo‘ymoqda. O‘sayotgan avlodning mustaqil va ijodiy fikr egasi, ixcham va go‘zal nutq sohibi, nutqiy sharoitni to‘g‘ri baholay oladigan tadbirkor vatan taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, ma’naviy barkamol kishilar bo‘lib yetishishni ta’minlash – umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar tizimi ona tili ta’limining bosh maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’limini o‘rganishda asosiy maqsad kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va suxandonlik san’atidan baxobar, og‘zaki nutq hamda matn yaratish

ko'nikmalarini mukammal egallagan, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan iborat.

Davlat ta'lim standartlari ana shu ta'limiy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, ona tili ta'limi:

- o'quvchilarning kuzatish, anglash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, alohidaliklarni ajratish, qiyoslash va tasniq qilish loyaqatini, mantiqiy tafakkur darajasini o'stirishga xizmat qiladigan, o'zbek tilini jahon miqyosiga olib chiqadigan milliy kadrlar yetkazib berishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari tizimi ona tili fani oldiga o'qituvchidagi kommunikativ savodxonlik, nutqiy madaniyat, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda mustaqil va erkin ifodalay olishga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'yadi. Buning uchun ona tili ta'limiy mutaxassislari:

- o'quvchilarning tevarak atrofdagi buyum, narsa, hodisalar va ularning ilmiy-ijtimoiy mohiyati to'g'risidagi tasavvurlari doirasini kengaytirish;

- o'quvchilarda mazkur buyum va hodisalar orasidagi sabab, shart, oqibat, qarama-qarshi munosabatlar, to'g'ri va teskari aloqani aniq farqlash, voqea va hodisalarni analiz va sintez qilish, uni og'zaki va yozma holatlarni nutqiy vaziyat taqozasiga ko'ra to'g'ri va o'rinli tasnif qila olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'z fikrini erkin, ravon ifodalay olish o'z ilmiy iqtidori, bilimi, ularni amaliyotga joriy etish orqali qo'lga kiritilgan ijobiy natijalarni (nutqiy mahorat, matn yaratish mahorati) boshqalarga ham yetkaza bilish malakalarini rivojlantirish ustida ishlashlari lozim.

Respublikamiz umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida ona tili taʼlimi samarasini oshirish, pedagog xodimlar va oʻqituvchilar jamoasida ilmiy potensiyalni kuchaytirish, oʻquvchi va oʻqituvchilar oʻrtasidagi mustahkam ijodiy hamkorlikni, haqiqiy ijodkorlik va izlanuvchanlik ruhiga yoʻgʻrilgan ijobiy-rivojlanuvchi muhitni hosil qilish shu kunning dolzrab masalalaridan biri boʻlib turibdi.

Xoʻsh, maktab oʻquvchisini oʻquv jarayonining subyektiga (ishlovchisi – izlanuvchisi, ixtirochisi), oʻqituvchini esa shu jarayonning boshqaruvchisi (izlanuvchan va ijodkor shaxs)ga aylantirishimiz uchun nima qilishimiz, ishni nimadan boshlashimiz, xususan, ona tili taʼlimi samaradorligini oshirishning, oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqini DTS talablariga mos ravishda toʻgʻri, ravon shakllantirishning qanday usul va vositalaridan foydalanishimiz lozim?

- avvalo, umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida 30-50-yillarda shakllanib, to hozirgi kungacha ham davom etib kelayotgan oʻqituvchi shaxsi, uning dunyoqarashi va tafakkuri ustivorligiga asoslangan anʼanaviy taʼlim tizimidagi eskirgan usullardan (oʻqituvchi – tushuntiruvchi, oʻquvchi - bajaruvchi) uzil –kesil voz kechishimiz;

- umumjahon pedagogikasi hamda til oʻqitish metodikasida eng yangi hisoblangan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirilgan, oʻquvchini izlanish va muammolarni yechishga yoʻnaltiruvchi, unda ijobiy oʻquv motivlarini hosil qiluvchi oʻquv-multimediya dasturlari, elektron oʻquv adabiyotlari bilan modernizatsiyalashtirilgan ongli verbal-kognitiv taʼlim tizimi (kashfiyot taʼlim tizimi)ga intensiv surʼatda oʻtishimiz;

-metodist olimlarimiz tomonidan tavsiya qilinayotgan taʼlim mazmunini takomillashtirish, bilim, koʻnikma va malakalarni egallash suratini jadallashtirish, matn yaratish koʻnikmalarini mustahkamlash

maqsadida modullashtirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishimiz;

- ona tili ta'limi jarayonida o'quv texnika vositalaridan foydalanishda maksimal darajaga ko'tarishimiz;

- muommali ta'lim va interfaol metodlardan, ta'sir va aks ta'sir usullaridan unumli foydalanishimiz, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ta'limiy – tarbiyaviy, ustoz-shogird munosabatlarini do'stlik va o'zaro ijodiy hamkorlik darajasiga olib chiqishimiz;

- berilgan matn ustida ijodiy ishlash bilan boshlangan darsni yangi mustaqil matn yaratish – kashfiyot bilan tugallashga erishamiz;

- o'quvchini ishlovchi, izlanuvchi, kashfiyotchiga, o'qituvchini esa izlanuvchi.

- boshqaruvchiga, o'quvchi iste'dodining hali ochilmagan qirralarini kashf etuvchi, uni muammolar yechimini topish sari yetaklovchi jonkuyar yo'l boshchiga aylantiradi!

Ona tili ta'limida o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta'minlash so'z boyligini oshirish, nutqiy mahoratni shakllantirish, o'quvchining muomala-muloqot san'atidan xabardor qilish, turli mazmun va shakllardagi munshaot matnlari, badiiy ramziy matnlar ustida, ijodiy ishlash, egallangan BKMLar asosida kichik matnlar, monolog va dialoglar tuzish orqali o'quvchini mustaqil matn yaratishga o'rgatish kabi ijobiy o'quv motiqlarini hosil qilishdan iborat bo'lib, u ona tili ta'limi samaradorligini oshirishning eng muhim va zarur omillardan biri sanaladi.

Zero, mustaqil yaratilgan matn o'quvchi tafakkuri, intellektual qobiliyatining voqealanishi, tugal bir mazmunning o'quvchi tomonidan kashf etilishi, yuzaga chiqishidir.

Matnlar o'zining qator xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'quvchi matn ustida ishlar ekan turli murakkablik, qiyinchiliklarga duch

keladi, muommoli vaziyatdan chiqish, uning yechimlarini topish yo‘llarini qidiradi. Matn ustida ishlash faoliyati faqat darslikda berilganlari bilan chegaralanib qolmasdan, ilmiy va badiiy adabiyot, davriy matbuotdan tanlab olingan matnlar, audio-videolavhalar ustida ishlash ham o‘quvchilar uchun qiziqarli va zavqli bo‘lishi tabiiy.

Ona tili ta’limida matn ustida ishlash usullari bag‘oyat xilma-xil. Biz quyida ularning ayrimlari xususida fikr yuritamiz.

Grammatik usul (an’anaviy amaliyot)

1. Berilgan matndan o‘rganiladigan mavzuga oid so‘zlarni ajratish, ularni so‘z turkumlari bo‘yicha guruhlash, so‘z yasovchi, o‘zgartiruvchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarni guruhlash.

1. Matndagi sodda gaplardan qo‘shma gaplar hosil qilish va aksincha qo‘shma gaplarni soddalashtirish.

2. Ajratilgan sodda va qo‘shma gaplarni sintaktik tahlil qilish.

3. She’riy asarlar mazmunini nasriy yo‘l bilan so‘zlab berish.

4. Matndagi qo‘shma gaplarni ajratish, turlarini aniqlash.

5. Berilgan gap morfologik yoki sintaktik tahlil qilish v.h.

Ijodiy usul (yangilanayotgan amaliyot)

1. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ibora va tasviriy ifodalar bilan almashtirish, ularning lug‘aviy ma’nosini aniqlash va sharhlash;

2. Ajratilgan so‘zlarga ma’nodosh, uyadosh, shakldosh va zid ma’noli so‘zlar topish va ularning lug‘aviy ma’nosini sharhlash;

3. Ilmiy uslubdagi matnni badiiy uslubdagi matnga aylantirish;

4. Matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirish;

5. matndagi gaplarni kengaytirish (ixchamlash);

6. Boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish;

7. Muommoli matn ustida ishlash va yechimini topish;

8. Berilgan so‘z (so‘z birikma, gap) asosida mustaqil matn yaratish;

9. Berilgan elektron tasvir (rasm, chizma, jadval) asosida badiiy (ilmiy, tasviriy nazmiy) matn yaratish v.h.

Tabiiyki, ijtimoiy jamiyatda yashovchi har bir shaxs yoshligidanoq o‘zaro muloqot, muloqot jarayonida fikrlash va fikr ifodalash zaruriyatini chuqur his qiladi. Insonning ma’naviy hayoti mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba – nutqiy muloqot hisoblanshcha, insoniyat erishgan taraqqiyot, madaniy merosni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng ishonchli yo‘li – ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash – mustaqil matn yaratish malakasini egallashdir. Bunday malakaga ega bo‘lishning birinchi sharti – o‘quvchilarni tayyor matn ustida ishlashga o‘rgatish, matn tarkibida mavjud bo‘lgan mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni qiyinchiliksiz aniqlash va bartaraf etish, matn mazmuni, shakli va uslubini turfa yo‘nalishda qayta ishlash (ixchamlash, kengaytirish matn tilini boyitish (epigraf, sitata. Iboralar va tasviriy vosita, maqol, hikmatli so‘zlar kiritish) ko‘nikmalarini shakllantirish, matnni tahlil qilish va tahrir qilish yo‘llarini o‘rganishga yo‘naltirishdir. Grammatik shakllarni o‘rganishdan maqsad – o‘rganilayotgan lisoniy qonuniyatni nutq tarkibida tahlil qilishni nazarda tutadi.

Otlarni alohida turlash, fe‘llarni tushirish fonetika, morfemika, morfologik – grammatik – sintaktik qonun – qoidalarini chuqur va keng ko‘lamda o‘rganish foydali, bil’aks mazkur faoliyat o‘quvchi ongida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi va avtomatlashuviga yetarlicha foyda bermaydi. Bunda shakl, mazmundan ajraladi, shaklning anglatgan ma’nolari to‘laligicha ochilmay qoladi. Aksincha, til hodisalari nutq tarkibida tahlil qilinsa, til bo‘limlarini o‘rganish matn yaratish va matn tahlili bilan birgalikda, o‘zaro uyg‘unlikda olib borilsa, o‘quvchilar shakl va mazmun o‘rtasidagi turli-tuman bog‘lanishlarni anglab yetadi va o‘z nutqiy faoliyatiga tatbiq etadi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarida mustaqil matn yaratish koʻnikmalarining shakllanishida topshiriqli mashqlar tizimida foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday topshiriqlar oʻquv maqsadiga koʻra 2 turga boʻlinadi;

1. Taʼlimiy mashqlar. 2. Nazorat mashqlari.

Bajarilish oʻrniga koʻra sinf ishlari va uy ishlari farqlanadi.

Fikr ifodalash shakliga koʻra ogʻzaki va yozma, analitik, analitik-sintetik va sintetik mashqlar uchraydi.

Bogʻlanishli nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardagi topshiriqlar tayyor va yaratilajak matnlar ustida olib boriladigan oʻquv faoliyatini oʻz ichiga oladi.

Analitik xarakterdagi tayyor matnlar ustida ishlashda quyidagi oʻquv topshiriqlaridan foydalanish mumkin.

- tanlangan matnga sarlavha toping.
- kirish soʻz (asosiy qismni, xulosani)ni ixchamlang;
- berilgan matnda mavjud boʻlgan imloviy xatolarni toʻgʻirlang;
- gaplarda soʻz tartibi, tinish belgilarining ishlatilishida yoʻl qoʻyilgan xatolarni tuzating.
- uslubiy va imloviy xatoli matnlar ustida ishlang;
- berilgan matndan kengaytirilishi (ixchamlanishi) mumkin boʻlgan gaplarni toping va kengaytiring (ixchamlang).
- berilgan matndan nooʻrin ishlatilgan soʻzlar, soʻz birikmalari, sitatalarni toping va bartaraf qiling;
- berilgan matnga mos keladigan maqol, hikmatli soʻzlar, ibora va tasviriy ifodalar toping. Ularni matn tarkibiga kiriting;
- berilgan matn bilan tuzatilgan (kengaytirilgan) matnni qiyosiy tahlil qiling;

- nima uchun matnda berilgan soʻzni (soʻz birikma, ibora, tasviriy ifoda) almashtirganingizni isbotlang;

- siz kiritgan tuzatish matn uchun zarurligini isbotlang v.h. ;

Oʻquvchi ongida matn ustida ishlash koʻnikmalarini shakllantirish jarayoni ona tili taʼlimida oʻta muhim va maʼsuliyatli davr boʻlib, unda oʻquvchi monologik va diologik matn turlarini oʻrganish bilan birga matn ustida ishlash mahoratini egallashga ham yoʻnaltiriladi. Matn ustida ishlash, avvalo, oʻquvchidan matn va uning turlari, matn qismlarining oʻzaro oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlash, matn tarkibi, uning qurilishi, uslubi, tili haqida muayyan bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlishlikni talab qiladi. Matn bilan yuzma-yuz boʻlgan 8-9-sinf oʻquvchisi uning qaysi matn turiga kirishini qiyinchiliksiz farqlashi, matnning tarkibiy qismlari – kirish, asosiy qism, xulosaning mavjudligi, matnning qaysi sohaga, qaysi janrga mansubligini bir qarashda bilishi lozim boʻladi. Quyida 5-9-sinflar ona tili taʼlimida oʻrganiladigan monologik matn turlari va uning xususiy jihatlarining qisqacha tasnifi keltirildi:

1. Rivoyat matn (Sharq faylasuflarining ilmiy merosi, axloqiy tarbiya va maʼnaviy-maʼrifiy dunyoqarashlar, ibora, hikmatli soʻz va maqollarning kelib chiqishi, etimologiyasi talqini v.h.);

2. Tasviriy matn (tevarak-atrof, daraxt, bino, gulzor, maktab bogʻi, oshxonasi, rasmlar, narsa-buyumlar tasviri v.h.);

3. Muhokama matn (ilmiy asar, badiiy kitob, shaxsning individual xususiyatlari, yurish-turishi, xulqi-odobi, muomala-madaniyati, biror sohaga qiziqishi borasida munosabat bildirish v.h.);

4. Ilmiy – grammatik matn. Ona tili fani boʻlimlari va mavzulari, ularning ilmiy talqini, kommunikativ jadvallar tasnifi (M., olmosh va uning turlari tasnifi v.h.);

5. Ma'rifiy matn. Mashhur shaxslar hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyatini elektron tasvir orqali yoritish, ularning tarjimai holi, yaratgan ilmiy yangiliklari, san'at asarlari madaniy merosi haqida to'xtalish v.h.;

6. Ixtisodiy matn. Muayyan kasb-hunar, ilm-fan, texnikaga oid xususiy atamalar ishtirokida, ma'lum maqsad (ma'lumot, axborot, ma'ruza) aniq soha yo'nalishida yaratilgan matn v.h.;

7. Munoshaot matnlari: Rasmiy hujjat matnlari, Shaxsiy hujjatlar; ariza, tilxat, bildirishnoma, shartnoma, qarordan ko'chirma, taqriz..., Davlat hujjatlari; Litsenziya, sertifikat, guvohnoma, diplom....

8. nazmiy matnlar: Bayt, to'rtlik, sakkizlik, she'r, tuyuq, qo'shiq, o'lan, doston, poema, muvashshak ... v.h.

O'quvchilarni matn yaratishga tayyorlashda uyadosh va ma'nodosh so'zlar ustida ishlash ham alohida o'rin tutadi. Ma'nodoshlar – yaratilgan matn tilini boyitish, badiiy bo'yoqdor so'zlarni tanlash, ularni iboralar bilan almashtirish, ularni o'z matnida qo'llashning eng ishonchli va mahsuldor usuli. Uning shakl va usullari nihoyatda xilma-xil. Ularning eng keng tarqalganlarini o'quvchilarga eslatish, mavzuga oid ijodiy va mustaqil ishlar bajarish, masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinflari uchun yaratilgan elektron o'quv qo'llanmadagi "Leksikologiya" slaydidan foydalanib, ma'nodosh va uyadosh so'zlar mavzusiga oid nazorat testlari tuzish o'quvchilarni mustaqil matn yaratishga tayyorlashda o'ta foydali o'quv topshiriqlaridan hisoblanadi.

Bunday ijodiy – amaliy ishlar, og'zaki va yozma nutqni ma'nodosh va uyadosh so'zlar bilan boyitishda muhim o'rin egallaydi.

An'anaviy ta'limning kammahsul, tahliliy usullaridan voz kechib yangi, o'quvchi – ta'lim – o'qituvchi tizimiga o'tish, ta'lim jarayonini ilg'or o'quv texnologiyasi yutuqlariga asoslangan, zamonaviy didaktik materiallar (ranli slaydlar, muayyan o'quv dasturi kiritilgan disketlar:

audio – video kasetalar v.h.) bilan qurollantirish, o‘quvchilarni jahon ta’lim standartlari talablariga mos keladigan yangi avlod darsliklari va dasturlari bilan ta’minlash – o‘quvchilarda mustaqil matn yaratish jarayonini jadallashtirish va shunday ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

1-topshiriq. Ekrandagi matnni diqqat bilan o‘qing. Unga sarlavha tanglang. Unda nechta qo‘shma, nechta sodda gap mavjudligini aniqlang. Matnning necha qismdan iboratligini, “oq ko‘ylakli qiz”ning kim bo‘lishi mumkinligini ayting.

Zarifa qayoqqadir ketgan, olmazorda hech kim ko‘rinmas, faqat qushlarning chug‘ur-chug‘uri eshitilar, qayerdadir, yaqinda tinmay bulbul sayrardi. Vohid har biri naq piyoladay keladigan oppoq olmalarning og‘irligidan yerga tegib qolgan daraxt shoxlarini ehtiyotlik bilan chetga sura-sura bog‘ning ichkariga qarab yurdi.

To‘satdan daraxtlardan biri qattiq silkindi, yomg‘irdek duv to‘kilgan olmalar Vohidning boshiga, yelkasiga tushdi. So‘ngra nimadir “chirs” etib singandek bo‘ldi, kimdir qulagandek tuyildi va boshini qo‘llari orasiga olib bukilib qolgan Vohidning oldida oq ko‘ylakli, nozikkina uzun bo‘yli bir qiz paydo bo‘ldi...

2-topshiriq. Matndagi qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar, ularning o‘zaro bog‘lanish vositalarini belgilang, matnning imloviy-uslubiy nuqsonli qismini aniqlang.

3-topshiriq. Matnni o‘z tasavvuringiz asosida davom ettiring. Xulosa qiling.

Bunday amaliy mashg‘ulotlarni ona tili darslarida mantazam, izchil pedagogik tizimda tashkil etish, o‘quvchilarning faqat o‘zigagina xos va mos bo‘lgan individual uslubni (“o‘z” uslubini) aniqlash va tanlay olishiga yordam beradi. O‘quvchining yozma nutqidagi uslubiy ravonlik va

mantiqiy mukammallik darajasini oshiradi, mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi, rivojlantiradi.

O'quvchilar tomonidan yaratilgan ixtisosiy (biologiya faniga oid) namunasi. Biologik matnga qo'yiladigan xususiy talablar tizimi:

Biologiya faniga oid ixtisosiy matnlar yaratish uchun o'quvchilar qanday mavzularni bilishi, qaysi masalalarga o'z munosabatini bildirishi va matn tarkibida qanday nutq vositalarini qo'llashi mumkinligi haqida o'quvchiga qisqacha ma'lumot berilishi maqsadga muvofiq. Yaratilgan matn tarkibi to'g'ri shakllantirilishi, mazmundor va foydali bo'lishi uchun esa o'quvchining muayyan tizim asosida fikr ifodalashi zarur bo'ladi. Masalan:

1. Kirish. Matnda tavsif qilinayotgan o'simlik yoki hayvonning yashash hududlari, qanday turga oidligi.

2. Asosiy qism. Oziqlanishi, hosildorligi, parvarishlash va ko'paytirish usullari;

3. Xulosa. O'simlik yoki hayvonning ijtimoiy hayotdagi o'rnini va ahamiyati, ekologik muommalar va ularning oldini olish usullari haqida bo'lishi mumkin.

Namuna:

Hisor qo'ylari

Hisor qo'ylari O'zbekistonning tog'li mintaqalarida boqiladigan uy hayvonlari turiga kiradi. Yozda tog' yonbag'irlarida o'tlab yurgan katta – kichik qo'y suruvlariga duch kelishi mumkin.

Qo'ylar o't-o'landan tashqari yem (makkajo'xori, arpa, bug'doy, suli) bilan oziqlantiriladi. Ular qish va erta bahorda qo'zilaydi. Qo'zichoqlar 1-2 ta, ba'zan 3 ta ham tug'ilishi mumkin.

Hisor qo'ylari dumli qo'ylarga nisbatan ancha katta, oyoqlari uzun va baquvvat bo'ladi. 3 yoshli qo'choqlar 80-100 kilogramgacha go'sht

berishi mumkin. “Qo‘chqor urishtirish” o‘zbek xalqining qadimiy, ko‘ngilochar o‘yinlardan biri. Bayramlar, to‘y-u tomoshalarda katta sovrin tikilib qo‘chqor urishtirish musobaqasi, “ko‘pkari”, “uloq”lar o‘tkaziladi.

O‘zbeklar qo‘y go‘shini sevib iste‘mol qiladilar. O‘zbekning palvoni qo‘y yog‘i, qo‘y go‘shisiz tasavvur qilish qiyin. Tog‘ archasi shaxslari bilan dimlab pishiriladigan “tandir kabob” esa chet ellarda ham mashhur.

Qo‘y – yetti hazinaning biri.

Mustaqil ish: Matnni ifodali o‘qing, uni tarkibiy qismlarga ajrating:

Matnga yangi sarlavha tanglang.

Tayyor (berilgan) matnlar ustida ishlashda, asosan DTS va me‘yoriy talablarga rioya qilish, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi amaliy ishlar bajarish, muayyan mavzudagi BKMLarni egallashga qaratilgan o‘quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin. Bundan tashqari matnning turi, qaysi uslubga xosligini aniqlash: matn qurilishi, tarkibi, tashkil etuvchi qismlari, tili haqida zaruriy tushunchalar hosil qilish, matndagi gaplarni sodda yoyiq va sodda yig‘iq gaplarga ajratish: sodda yoyiq gaplarni ajratilgan bo‘lakli va uyushiq bo‘lakli guruhlariga ajratish: gap markazi – kesimni topish, undan savol berish yo‘li bilan ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, holni aniqlash, ularning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligini belgilash: so‘zlarni uning uyadoshlari, ma‘nodoshlari, muqobillari, zid ma‘nolari bilan almashtirib, gaplarning shakli va mazmunini o‘zgartirish: inversiya hodisasiga asosan gaplardagi so‘z tartibini o‘zgartirib ko‘rish, yoyiq gaplarni yig‘iq gaplarga aylantirish va aksincha: matndagi sodda gaplarni ohang va bog‘lovchilar yordamida o‘zaro biriktirib, qo‘shma gaplar hosil qilish, bir necha ergash gapli qo‘shma gaplarni sodda uyushiq bo‘lakli gaplarga aylantirish, tinish belgilari ustida ishlash v.h.

Matnni kengaytirish. Matnga epigraf tanlash, matnni badiiy bo‘yoqdor so‘zlar, kiritmalar, sana, fakt va dalillar, maqol, matal, hikmatli

soʻzlar, iboralar, tasviriy ifodalar bilan boyitish, ega toʻldiruvchi hol vazifasida kelgan soʻzlarni aniqlovchi (soʻz kengaytiruvchisi) vositasida kengaytirish: kesimdan savol berib gaplarni kengaytirish, qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni ajratish, gap tarkibiga uyushiq boʻlaklar, ajratilgan boʻlaklar, undalmalar kiritish, ular orasidagi grammatik va sintaktik, bogʻlanishlarni aniqlash, belgilash, ularni boshqalari bilan almashtirish, kirish soʻz va xulosalar tarkibiga oʻz nuqtai nazari boʻyicha qoʻshimchalar kiritish, ilmiy matnni badiiy matnga (yoki aksincha aylantirish (mazkur amaliy ishlar jarayonida soʻz kengaytiruvchilari (aniqlovchi, toʻldiruvchi) va gap kengaytiruvchilari (hol, ega, kesim)dan samarali foydalanish.

Matnni ixchamlash. Matn mazmunini oʻzgartirmagan holda matnda mavjud boʻlgan ortiqchaliklar: shaxs va narsa – buyumning toʻliq tasviri, tarjimai hol, portret, peyzaj koʻrinishlari ifodasini maksimal darajada kamaytirish, matnni takrordan tozalash, imloviy, mantiqiy uslubiy xatoli soʻz, gap iboralarni topish, ularni bartaraf etish, sodda gaplarni qoʻshma gaplarga aylantirish, qoʻshma gaplarni soʻz va gap kengaytiruvchilaridan holi qilib, uyushiq boʻlakli gaplarga aylantirish, lirik chekinish, badiiy tasvirlarning oʻrinli-oʻrinsizligini aniqlash, gapda soʻz tartibiga rioya qilingan – qilinmaganiga ahamiyat berish: badiiy boʻyoqdor gaplarni sheʼr qatorlarga aylantirish (ijodiy ish) va aksincha, sheʼriy matnni nasriy holatga keltira olish koʻnikmalarini shakllantirish.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarini matn ustida ishlash usullari bilan tanishtirishda quyidagi koʻrsatmalarga amal qilish yaxshi samara beradi:

- oʻquvchilarda oʻzbek adabiy tilining boy uslubiy zaxiralari hamda funksional – ekspressiv imkoniyatlariga oid nazariy bilimni mustahkamlash;

- matnning muayyan emotsional – ekspressiv bo‘yog‘i tantana, xush kayfiyat, lirik-intim, nazokatlilik, kinoya, ta’na, e’tiroz kabi ma’no farqlarini anglash va uni nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri ifodalash qonuniyatlari bilan tanishtirish;

- til vositalarining matnda funsiyaonal tabaqalashuvi uslubiy ixtisoslashuvi va uslubiy me’yorlariga oid bilim ko‘nikma va malakalarni chuqurlashtirish;

- o‘quvchilarni berilgan yoki yartilgan matnni shakl va mazmun yaxlitligi talabi asosida tanqidiy baholashga odatlantirish, mantiqiy va uslubiy jihatdan mukammal bo‘lgan ilmiy-grammatik, badiiy (nasriy va nazmiy), badiiy – ramziy, munshaot (ariza, tilxat, tarjimai hol, maktub, majlis bayoni, tavsifnoma, annotasiya, tezis, shartnoma v.h.) – monologik matnlarni farqlash va shunday matnlarni qiyinchiliksiz tuzishga odatlantirish;

- matnda muayyan uslubning yuzaga kelishida tilning barcha sathlariga aloqador so‘z va so‘z birikmalarining baravar ishtirok etishi lozimligi, matnda gaplararo, abzaslararo bog‘lanishga rioya qilish, fikrni tugallab, keyingi xatboshiga o‘tish, xatboshini yangi tushuncha bilan boshlash kabi zaruriy maqsadlarga erishish imkoniyatining MYaBT - 4 modulining 1-bosqichidagi uyadosh so‘zlar tanlash topshirig‘ini bajarish jarayonida qo‘lga kiritilishi mumkinligini o‘quvchi ongiga singdirish;

- o‘quvchi ongida mavjud bo‘lgan milliy tilning uslubiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, bolani turli nutqiy vaziyatlarga olib kiruvchi, unda nutqiy vaziyat va sharoit talabiga ko‘ra to‘g‘ri va o‘rinli fikr ifodalash mahoratini o‘stiruvchi, muammoli ta’lim texnologiyasi yutuqlarini egallash va ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali mustaqil va ijodiy matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilari matn ustida ishlash va matn yaratishni oʻrganish jarayonining oʻzaro aloqadorlikda olib borilishiga erishish, ularda maʼlum bir mazmuni turli shakl va uslubda bayon etish koʻnikmalarini shakllantirish, gazeta, jurnal, badiiy va ilmiy adabiyot manbalari, kompyuter axborot bankida va Internet tizimida saqlanayotgan turli axborotlar, mavzuga oid maʼlumotlardan (mavjud imkoniyatlar doirasida) foydalanishga odatlantirish;

- matnni imloviy – uslubiy, mantiqiy, lisoniy va badiiy jihatdan tahrir qilish, uslubiy gʻalizlik va nuqsonlarni topish, ularni mustaqil bartaraf etish sirlarini oʻrganish;

- badiiy – ijodiy ishlar: lavha, esse, rivoyat, xabar, munshaot matnlari, hikmatli soʻz va maqollar tavsifi, ramziy-badiiy insholar, maktub, tabrik reklama yozish usullarini (maxsus oʻquv topshiriqlari asosida) oʻrganish;

- oʻquvchi ongida matn sarlavhasiga qarab, umumiy shakl va mazmuni belgilash, mavzu yoʻnalishi maqsadiga mos uslub va janrni mustaqil tanlash koʻnikmalarini shakllantirish, unda shu mavzuga mos adabiyotlar, ilmiy materiallar, maqollar yigʻish koʻnikmalarini shakllantirish;

- OVKT – kashfiyot taʼlim tizimiga asoslangan, oʻquvchining kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, egallagan BKM larning amaliy tatbiqi darajasini aniqlash va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, ishlovchi subyektni tez va toʻgʻri fikrlashga yoʻnaltiruvchi – matn yaratishning zamonaviy moduli MYaBT – 4 ning uzviylik va uzluksizlikka asoslangan harakatlanish mehanizmi, ish bajarish texnologiyasi bilan oʻquvchilarni yaqindan tanishtirish lozim boʻladi.

Ilmiy tadqiqotlar jarayonida oʻtkazilgan anketa savol – javoblaridan maʼlum boʻlishicha, umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilari oʻz

fikrini (muayyan dars mavzusi sathida, maqsadga muvofiq tarzda) yozma va ogʻzaki ifodalash vaqtida ayrim oʻquv qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular quyidagilar:

1. Gap tuzishda zarur va oʻrinli soʻzni tezlikda topib, ishlata olmaslik.
2. Fikrni qisqa, aniq, tushunarli, ravon ifodalay olmaslik.
3. Matnni xulosalashdagi qiyinchiliklar.
4. Fikr ifodalash jarayonida izchillik va uzluksizlikni taʼminlash.
5. Soʻzning ifoda imkoniyatlaridan nutqiy vaziyatlarga mos ravishda toʻla foydalana bilmaslik.
6. Matn tarkibini toʻliq shakllantira bilmaslik.
7. Bogʻlovchi vositalarni nooʻrin ishlatish.
8. Takrorga yoʻl qoʻyish.
9. Matn tahlili.
10. Notoʻgʻri xulosalar chiqarish v.h.

Mustaqil fikr ifodalash, savodli matn yaratish taʼlim jarayonida oʻquvchi eng koʻp duch keladigan oʻquv qiyinchiliklaridan hisoblanadi. Bunday nutqiy qiyinchiliklardan qoʻrqmaslik uchun oʻqituvchi va oʻquvchi oʻzaro hamkorlikda ishlash, oʻquvchining MYaBt – 4 matn yaratish modeli, elektron oʻquv qoʻllanmalar yordamida oʻz nutqiy mahorati koʻnikmalarini shakllantirib borishi, oʻz ustida muntazam ishlashiga sharoit va koʻnikmalar yaratib berish lozim boʻladi.

Yangi avlod darsliklaridan M.Qodirov, N.Neʼmatov, M.Abduraimova, R.Sayfullayevalarning 8-sinflar uchun moʻljallangan “Ona tili” darsliklarida ijodiy matn, insho va uning turlariga toʻla 6 soatlik dars ajaratilgan. Unda 8-dars maʼlumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matn muhokamasiga yoʻnaltirilgan boʻlib, mualliflar mavzuni oʻquvchi ongiga yetkazishda, bilishning 10 xil usullari orqasida eng qiziqarlisi boʻlgan

qiyoslash va farqlashni o‘rganish uchun, tavsiya qilingan 30-mashq ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchisi ijodiy tavsifiy matn, ikkinchisi esa ma’lumotnoma matni turlariga tegishli. Navbatdagi 31-32-mashqlar o‘quvchi tomonidan egallangan BKMLarning takrorlash va amaliyotga tatbiq etish maqsadlariga xizmat qiladi. Shuningdek, darslikdagi 9-dars “Insho – ijodiy mehnatning oliy ko‘rinishi”, 10- dars “Insho turlari”, 11-dars “Adabiy – ijodiy mehnatning mavzulardagi insholar”, 12-dars “Erkin mavzudagi insholar”, so‘nggi 13-dars esa “Inshoga epigraf tanlash” mavzusini yaratishga bag‘ishlanishi o‘quvchini izchil va uzluksiz fikrlashga, kuzatish va tanlashga yo‘naltiradi, uni o‘zi yaratgan matnda mantiqiy va mazmuniy uyg‘unlikni ta’minlash, matnni maqol va hikmatli so‘zlar, iboralar bilan bezatish, matn mazmuniga xos va mos bo‘lgan epigrflar tanlashga undaydi.

Matn ustida ishlash va matn yaratishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari DTS talabari asosida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari lozim bo‘ladi:

- o‘rganilgan matnda ifodalangan asosiy fikrini anglab yetish;
- mustaqil o‘qilgan matndan mantiqiy xulosa chiqarishni bilish;
- o‘rganib chiqilgan yoki o‘zi mustaqil yaratgan matnning turi, tili va uslubini aniqlash;
- munshaot matnlarini farqlash va ularni to‘g‘ri tuzish;
- matn tarkibini, uning uslubiy jihatlarini shakllantiruvchi, gaplarni o‘zaro bog‘lovchi til vositalarini tanlash va ularni o‘rinli qo‘llash;
- uslubiy nuqsonli gapni muxtasar va mukammal holatga keltira bilish;
- matn yaratish jarayonida so‘z birikmalaridan, ibora va tasviriy ifodalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan unumli foydalana bilish;

- berilgan muayyan bir mavzu yuzasidan ilmiy, badiiy publisistik, rasmiy, soʻzlashuv uslublarida kichik matnlar yarata olish;

- tayyor (berilgan yoki til mashgʻulotlarida yaratilgan) matnni tahrir, tahlil qila olish;

- matn mazmuniga munosabat bildirilgan kichik taqriz, tavsiya, takliflar yoza olish;

- elektron didaktik slayd va kommunikativ jadvallarni ilmiy, ilmiy-badiiy uslubda tasniflash va ulardan mavzu boʻyicha ilmiy matnlar tuzishda foydalanish;

- berilgan birgina soʻzdan foydalanib, oʻz nutqiy salohiyatini sinash – MYaBT – 4 moduli asosida matn yaratish: egallangan bilim, koʻnikma va malakalarga asoslanib uyadosh soʻzlar tanlash, soʻz birikmalari hosil qilish, gap va matn yaratish malakalarini shakllantirish;

- oʻquvchiga mustaqil fikrlash va yozma fikr ifodalash mahorati, oʻzi egallagan BKMLari darajasini aniqlash va baholashni oʻrgatish;

- madaniy muloqot koʻnikmalarini egallash va mazkur mavzuda turli uslubda matn yaratishni bilish;

- gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar yuzasidan taqriz va referatlar yozish, qomusiy va lingvistik lugʻatlardan erkin foydalanish v.h.

Tayyor matn asosida yangi matn yaratish.

Quyida tayyor matn asosida yangi matn yaratishni talab qiluvchi ijodiy topshiriqlardan namunalar beramiz;

- berilgan matn rejasini tuzish;

- matnni kengaytirib (qisqartirib) qayta hikoya qilish;

- berilgan matnni oʻrganib chiqib, shunga oʻxshash boshqa bir mavzu asosida xabar berish;

- matn oxirida berilgan soʻroqqa javob berish;

- berilgan hikoyani shunday qayta qurish kerakli, u voqeya eng qiziqarli joydan boshlansin;
- berilgan kichik matnni hikoyaga aylantirish;
- matnga muallif fikrini tasdiqlashga xizmat qiladigan iqtiboslar kiritish;
- matnni tahrir qilish v.h.

Quyida matn ustida ishlash jarayonida ijodiy va mantiqiy fikrlashga yo'naltiruvchi, uni to'g'ri, o'rinli ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi o'quv-uslubiy topshiriqlar, so'z va so'z birikmalari tushurib qoldirilgan uslubiy nuqsonli matnlar va mustaqil ijodiy ishlardan namunalar berildi:

Topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying, berilgan gaplarni kengaytiring, matnni ko'chiring.

1. Shoir ... xotiralarini so'zlab berdi. 2. ... respublikamiz ... muhim ro'l o'ynaydi. 3. Toshkentda ..., ..., ..., joylar ko'p. 4. Biz ... ozodaligi uchun kurashda ..., ... maktab o'quvchilarini ...ga chaqirdik.

Morfologiyani o'rganishda matn ustida ishlash.

Mustaqil ish: Matnda ajratilgan so'zlarni turkumlarga ajratib, guruhlang, miqdor va tartib sonlar yordamida yangi so'z birikmalari hosil qiling, so'ngra ular ishtirokida gaplar tuzing.

“San’at bayrami”

Bizga qo'shni bo'lgan 17-umumiy o'rta ta'lim maktabida “Nihol - shou” nomli san'atsevarlar guruhi ish boshladi. Men va ikki o'rtog'im ana shu guruhga a'zo bo'ldik....

Bugun shu guruh ishtirokida navro'zga bag'ishlangan san'at bayrami bo'ladi... Anavr va Sodiq men avtobusga chiqdik. Soat sakkizdan ellik daqiqa o'tganda manzilga yetib keldik.

Do'stlarim bilan 11-maktab oldida uchrashdik bayram tadbiri boshlandi. Men hayotimda birinchi marta katta zalda qo'shiq aytdim. Biz uchchala o'rtoq san'at bayramidan katta tassurotlar bilan qaytdik. Endi o'zimizning maktabimizda ham shunday guruh tashkil qilamiz. (72 so'z).

Psixologik test. Matn turini aniqlang. Matnni diqqat bilan o'qing. Savollarga javob berib. Kichik javob matni tuzish.

Vijdon

Ko'chadan bir ayol savatda olma ko'tarib boradi. Savatdagi olmalardan biri yerga tushib qoldi. Ayol buni sezmedi. Ayolning orqasidan kelayotgan bola uni sekingina olib, cho'ntagiga soldi. U ayolning yonidan o'tib ketayotgan edi, ayol uni to'xtatib, savatdagi olmadan birini unga uzatdi. Bola uyaldi, olmani olmadi. Uning cho'ntagida olma olov bo'lib tanasini kuydirayotgan edi. U cho'ntagidagi olmani olib, savatga tashladi va yugurib ketdi. Ayol olmani uzatganicha hayron bo'lib, uning orqasidan qarab qoldi. Bola uyiga kelib rosa yig'ladi.

To'g'ri javobni belgilang.

A) nasriy matn, b) nazmiy matn, v) ilmiy matn, g) badiiy matn, d) ma'rifiy matn.

Muhokama uchun savollar:

1. Bola nega uyaldi?
2. Ayol nima uchun hayron bo'ldi?
3. Bolaning yig'lashi sababini tushuntiring.
4. Siz bolaning o'rnida bo'lsangiz nima qilgan bo'lardingiz?

Ijodiy topshiriq: dialogik matnni o'z so'zlaringiz bilan ixchamlab, daftaringizga yozing. (Matn ekranga chiqariladi).

Temur va yo'lbars

Cho‘ponlarda biri qamishzorda yo‘lbars oralab qolganini, atrofni bezovta qilayotganini aytdi. Bu gap Temurbekda yoshlik shijoatini qo‘zgadi.

- o‘sha yo‘lbarsni o‘zim ovlayman.

Sarkardalar yetmishdan oshgan sohibqironning bu ahdidan zavqlanib ketishdi. Yuzlab bahodirlar qamishzorga yopirilishdi.

Temurbek qo‘lida og‘ir nayzasi bilan kuta boshladi. Yo‘lbars bo‘kirib, qamishzorda ko‘ringach, uning ko‘zlari sohibqironning ko‘zlari bilan to‘qnashdi.

- Allohu akbar! Og‘ir nayza sapchishga hozirlangan yo‘lbarsni bir ongda yerga mixlabqo‘ydi.

- Ofarin, Sohibqiron! Temurbek uni qo‘riqlagani yashirincha kelib, yonginasida turgan bahodirga o‘qrayib qaradi:

- qanday jur‘at etding?! Bahodir undan ko‘zlarini uzmay dadil javob qildi;

- qalbim amri bilan, Sohibqiron! Chindan ham unga hech kim buyruq bermagan edi. Temurbekning qalbi tovlanib ketdi;

- Isming? – so‘radi biroz yumshab

- Temur! – g‘urur va faxr ila javob qildi bahodir. Temurbek hayojonini yashirolmay, qo‘lini yigitning yelkasiga qo‘ydi.

- O‘nboshiga ayt, seni xos navkarlarim qatoriga yuborsin.

- Bosh ustiga, sohibqiron!

- Endi bo‘lsa, yo‘lbarsning terisini shil, o‘g‘lim.

Butun karvon hukmdor o‘ldirgan yo‘lbarsning terisini tomosha qildi. Sarkardalar tabrigi yog‘ilib ketdi. Qo‘lining zarbi yigitlarnikidan qolishmaydigan Sohibqironga zobit – u mingboshilar tahsinlar aytdilar.

Matn tahriri

Ma'lumki, metodik adabiyotlarda xatolarni bartaraf qilishning turli yo'llari ko'rsatib o'tilgan. O'qituvchi (muharrir) shunday usulni tanlashi lozimki, u o'quvchiga (muallifga) yo'l qo'yilgan xatoni aniq ko'rsatib tursin.

Nutqiy nuqsonlar – talaffuzdagi kamchilik, o'quvchi so'z va tushunchalarni, iboralarni nutqiy vaziyatga ko'ra tanlay bilmasligi.

Grammatik xatolar tahlili o'qituvchiga o'quvchining grammatik qonuniyatlarni bilmasligi, adabiy til me'yorlari bilan tanish emasligini ko'rsatadi. Shunday xatolarni bartaraf etish usullarini o'rgatadi.

Orfografik va punktuasion xatolar tahlili – o'quvchi ongida so'zlarni to'g'ri yozish, fikrni yozma holatda o'rinli ifodalash ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini ko'rsatadi. Shunday xatolardan saqlanish yo'llarini o'rgatadi.

O'quvchilarning punktuasion xatolarini tekshirish borasida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, P.I.Blinovning "Puntuasion xatolar tavsifi" maqolasida ham nutqiy xatolarni guruhlash, ularni shartli belgilar bilan belgilash usullari ko'rsatib o'tilgan. Ayni paytda ularning ilmiy tadqiqotlaridan ona tili o'qitish metodikida matn yaratish jarayonlarini takomillashtirish, o'quvchi matni tahririni osonlashtirishda samarali foydalanish mumkin.

Matn yaratishda, ayniqsa, badiiy matnda, nutqiy bo'yoqdorlik, ta'sirchanlikni yuzaga keltiradigan asosiy shartlaridan biri-so'zni tejamli va o'rinli ishlata bilishdir.

Nutqiy ifodalarni ixchamlashtirish yuzasidan matnga kiritiladigan tuzatishlarni ikkiga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Ta'sir doirasidagi tafsilotlarni kamaytirish hisobiga matnni ixchamlashtirish.
2. Tafsilotlarni saqlagan holda matnni ixchamlashtirish.

Quyida matn tahriri va uning amaliyotda qo'llaniladigan asosiy belgilari haqida qisqacha ma'lumotlar ro'yxati keltiriladi.

Tahrir belgilari asosan 9 ta.

1. Almashtiruvchi belgilar: paxtachilik so'zning bir yoki bir necha harfini almashtirish: bosh harfni kichik harfga: (harf ustiga chizing) kichik harfni bosh harfga (harf ostiga chiziq)

2. Shiqarish belgilari: so'zlar - ikki va undan ortiq so'zlar qatori –

3. Qo'shish belgilari: harflar, so'zlar, birikma va gaplarda ham kasaba oraliqni yopish, so'zni qo'shish-

Tursunpo'lat

4. O'rin almashish belgilari: bir qatorda kelgan ikki yoki undan ortiq so'zlar tartibi-

5. Oraliq belgilari: so'z va harflarni ajratish-O'rta Osiyo

Oq uy

6. Satrning shakliy belgilari: xat boshidan yozish-Z men uchuvchi bo'laman davomdan yozish- osmon o'par

Alohida yozish- Z.....Z

7. Shrift ko'rinishini farqlovchi belgilar: guruhlab, orasini ochib yozish- (-----) paxta ,qora

harfda, so'z ostiga chizib yozish-saraton qora harfda, yozish- olmos bosh harfda yozish-KONSTITUTSIYA

8. Kiritilgan tuzatishni bekor qilish belgisi (so'z ostiga chiziladi)

Kompyuter

Quyidagi matn tahriri va uning asosiy turlari haqida qisqacha ma'lumot berildi.

1. Matn tarkibi bo'yicha tahrir

2. Imloviy tahrir

3. Tinish belgilari tahriri

- 4.Uslubiy tahrir
- 5.Matnni kengaytirish
- 6.Matnni ixchamlash (qisqartirish)
- 7.Sana: yil va oylar, raqamlar tahriri
- 8.Sarlavha tahriri
- 9.Epigraflar tahriri
- 10.Badiy tahlil
- 11.Fakt va dalillar tahriri
- 12.Mantiqiy tahrir
- 13.Qo‘lyozmani oqqa ko‘chirish.

- Matn ustida ishlashdan ko‘zlangan maqsod o‘quvchiga mukammal matn haqida atroflicha tushuncha berish, undagi ijodiy tafakkur mexanizmini harakatga keltirish, aniq yo‘nalishda, izchil, mantiqli mushohada yuritishga, fikr mahsulini yozma ravishda to‘g‘ri ravon ifodalashga tayyorlashdan iborat.

Demak, matn ustida ishlash, matnni tahrir qilish mashg‘ulotlari, o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishni kafolatlaydi.

XULOSA

Mustaqil matn tuzish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash, matn yaratish va matn ustida ishlash bo'yicha birlamchi (ta'lim muassasalarida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning mavjud holati, anketa savollariga javoblar) pedagogik ilmiy tadqiqot eksperimenti natijalarini umumlashtirish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, mustaqil matn yaratish masalasining umumta'lim maktablari ona tili dasturi talablariga javob berish – bermasligi, mazkur ko'nikmaning bolalar tomonidan egallanganlik darajasi va uning amaliy tadbiqui yuzasidan o'rganilgan ma'lumotlarga asoslangan holda quyidagi xulosaga kelindi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5 – 9 – sinf o'quvchilarining ona tili fanidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalari, kommunikativ – uslubiy savodxonligi mustaqil, ilmiy – ijodiy va ixtisosiy matn yaratish uchun yetarli emas.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida mavjud bo'lgan ijodiy matn yaratish, matn qurilishini to'g'ri, ixcham, shakllantirish, fikrni badiiy bo'yoqdor so'zlar orqali ifodalash ko'nikmalari DTS talablariga to'liq javob bermaydi.

3. O'quvchilarda badiiy bo'yoqdor gaplar qurish uchun zarur bo'lgan turg'un iboralar, maqol va hikmatli so'zlar, tasviriy vositalar zaxirasi o'ta nochor.

4. O'quvchilarning yozma ishlarida uchraydigan imloviy nuqsonlar izchil bartaraf etilgani holda gap qurilishidagi g'alizliklar, mazmuniy, mantiqiy – uslubiy nuqsonlar ustida ishlash ona tili o'qituvchilarining (natijada o'quvchilarining ham) e'tiboridan chetda qolmoqda.

5. O'quvchilar ongida yaratilayotgan matn mazmunini, alohida ajratilgan tushunchalarni analiz va sintez qilish, jumlar tuzish uchun

zarur bo'lgan so'z va so'z birikmalarini hosil qilish, ularni qiyoslash va tanlash, usluban ravon, shaklan ixcham va mantiqan to'g'ri fikr ifodalash, ko'nikmalari yetarli darajada rivojlantirilmagan.

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida hozirgi o'zbek adabiy tili fanlarining ayni paytda juda dolzarb bo'lib turgan o'quvchilarda matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish masalasi – rivojlantiruvchi ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qayta ishlanishga muhtoj.

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni yozma ifodalashni faollashtirishning eng ishonchli vositasi muammoli-ijodiy (lingvopsixologik) o'quv topshiriqlari ekanligi, ular faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, izlanuvchanlik kabi o'quvchi shaxsining muhim sifatlarini jamlovchi va bir yo'la harakatga keltiruvchi psixolingvistik xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun, o'quvchi ongida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishni ana shu bosqichli – yo'naltiruvchi topshiriqlar asosida tashkil qilish matn yaratish amaliyotining yetakchi metodlaridan biri sifatida qaraldi...

O'quvchining mustaqil matn yaratish faoliyatiga quyidagicha ilmiy pedagogik tasniflar berildi.

Mustaqil matn yaratish jarayoni – belgilangan maqsad, egallangan bilim, ko'nikma va malakalar, o'z nutqiy imkoniyatlari doirasida harakatlanuvchi tasavvur, idrok, ong va tafakkurning uyg'unlashuvidir.

Mustaqil matn – individual bilim, idrok va tafakkur mahsuli, analiz va sintez hosilasi, o'quvchining nutqiy kashfiyotidir.

Matn – belgilangan maqsad va nutqiy imkoniyatlar asosida harakatlanayotgan xotira, idrok va tafakkur mahsulidir.

Mustaqil yaratilgan matn-nutqiy malaka, intellektual qobiliyat, ma'anviyat va tafakkur uzviyligi hosilasi, ijodiy fikr mahsulining moddiylashuvidir.

Mustaqil matn yaratish faoliyati – o'quvchidagi kommunikativ savodxonlik, yozma fikr ifodalash qobiliyatining muayyan nutqiy – uslubiy ma'yorlar asosida voqyealanishi, in'ikosidir. U o'quvchining ona tili fani yuzasidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalari, til imkoniyatlaridan foydalanish darajasini aniqlashning ishonchli vositasi xisoblanadi.

Mustaqil matn – o'quvchining til imkoniyatlaridan foydalanish darajasi, fikr ifodalashda so'zga mas'ullik, so'z boyligi darajasini ko'rsatib turuvchi mazondir.

- Mustaqil matn yaratish va matn ustida ishlashdan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining amaliy tatbiqini ta'minlash, individual tafakkur mexanizmini harakatga keltirish, o'quvchini mavzu yo'nalishida, izchil, mantiqli, faol mushohada yuritishga, fikr mahsulini yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga tayyorlashdir. Shuningdek mazkur faoliyat o'quvchilarni matn turlarini farqlash bilan o'zaro uyg'unlikda olib borilishi – o'quvchilarni mustaqil va ijodiy matn yaratishga tayyorlashning ishonchli kafolatidir.

Shuningdek, mazkur lingvopsixologik faoliyat orqali o'quvchilarda ta'limiy tafakkur operasiyalarining faollashuvi ta'minlanadi.

Til va matn

Garchi, azim daraxt bo'lsa, til,

Matn unda yetilgan hosil.

Hodisa deb qaralsa, lison

Matn turur xulosa, inon,

Til – sabab deb olinsa, albat

Matn erur najot – oqibat.

Til onadir, matn – zurriyot,

Muloqotni o‘rgan, ey farzand

Til boylikdir, matn – ma’naviyat

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T., “Sharq” 1998. 33-bet.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T., 2008y.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonun (Yangi tahrirda). Xalq so‘zi: 1995, 20-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun//Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., “Sharq”, 1997. 20-29-betlar.
5. “Kadrlar tayyorlashmilliy dasturi”. – T., “Sharq”, 2001. 662-bet.
6. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. 1999 yil, 1-maxsus son.
7. Takomillashtirilgan yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. T., 2010 yil.
8. Ona tilidan yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturi va mavzuiy rejalashtirish. Tuzuvchilar. R.Safarov., R.Yo‘ldoshev., M.Mirmaxsudova. – T., 2004 y.
9. Almamatov T., Yadgarov Q., Pochayeva G. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Jizzax 2006 yil.
10. Almamatov T., Yadgarov Q. Badiiy matnning lingvistik tahlili. (metodik tavsiyanoma). Jizzax., 2005 yil.
11. Alavutdinova N. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. T., 2008 yil.
12. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent, 2011 yil.
13. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. T., 2003 y.
14. Lapasov J. Badiiy matn va uning lisoniy tahlili. T., 1995 yil.

15. Mahmudov N va boshqalar. “Ona tili” 6-sinflar uchun darslik. Toshkent “Tasvir” nashriyoti. 2009 yil.
16. Mahmudov N. “Ona tili” 5-sinflar uchun darslik. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2007 yil.
17. Mahmudov N va boshqalar. “Ona tili” 7-sinflar uchun darslik. Toshkent 2006 yil.
18. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. T., “Fan”, 2006 yil.
19. Nematov H. Bozorov O., Til va nutq, T., “O‘qituvchi” 1999, 3,3-bet.
20. Nematov H, Bozorov O. “Til va nutq”. Toshkent “O‘qituvchi” 1999 yil 3-bet.
21. Nurmonov A, Ikramov I, Boynazarov F. “Yangi pedagogik texnologiya asoslari”. Toshkent, 2007 yil.
22. Qodirov M va boshqalar. “Ona tili” 8-sinflar uchun darslik. Toshkent, “Cho‘lpon”, 2006 yil.
23. Sapayev Q. “Hozirgi o‘zbek tili”. Toshkent, 2009 yil.
24. To‘xliyev B, Shamsiyeva M. Ziyotova G. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 2010 yil.
25. To‘xliyev B, Inog‘omova R, Abdulhatova R. “darsliklar bilan ishlash metodikasi”. Toshkent, 2008 yil.
26. To‘xliyev B, Yusupova Sh, Haqberdiyeva Z. “Yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi” Toshkent, 2010 yil.
27. To‘xliyev B, Niyozmetova R, Boltayeva I. “darsliklar ustida ishlash”. Toshkent “Fan” nashriyoti 2007 yil.
28. Umarova H. “Qiziqarli grammatika” Toshkent, “Halq merosi”, 2002 yil.
29. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik asoslari. T., 2007y.
30. Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., 2007.

31. Ziyodova T., “O‘quvchi kitobi”, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nao‘riyoti, Toshkent, 2002. 130-bet.
32. Ziyotova T “Matn yaratish texnologisi” Toshkent, “Fan” 2007 yil.
33. O‘rinboyev B., Qo‘ng‘urov., Lapasov J. Badiiy matnning lingvistik tahlili. T., 1990 yil.
34. G‘ulomov A, Ne‘matov H. “Ona tili ta‘lim mazmuni”. Toshkent “O‘qituvchi” 1995 yil.
35. G‘ulomov O. “Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari”. Toshkent 1992 yil.

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Gulshoda Normanovaning “Ona tili mashg‘ulotlarida matn ustida ishlash” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

“Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan kelib chiqib aytish mumkinki, umumta’lim maktablarida matn ustida ishlash eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Chunki, o‘quvchilarimizning kitobga, badiiy adabiyotga qiziqishini uyg‘otish, ularni ezgu fazilat egalari qilib tarbiyalashda, ona tiliga qiziqishi va e’tiqodining yuqori darajada bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham o‘rta maktab, kollej va litseylarda ona tili bilan bir qatorda o‘zbek adabiyoti namunalarini o‘rgatish katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlik, ta’limning va uzluksiz va uzviyligini ta’minlashda ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

G.Normanova o‘zining ona tili darslarida matn ustida ishlashga bag‘ishlangan bitiruv ishida mazkur muammoga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish, ona tili darslarida matn ustida ishlashning o‘ziga xos usullarini ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni badiiy matn turlari va uni tahlil qilishga oid dastlabki bilim va tushunchalarni aniqlash, badiiy asar tilini tahlil qilishga o‘rgatish bilan aloqador bo‘lgan ta’lim mazmunini muayyanlashtirish, badiiy asar tilini tahlil qilish metodikasining nazariy asoslarini belgilash, o‘quvchilarning badiiy matn turlarini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan og‘zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirish va rivojlantirishga imkon beradigan ilmiy-metodik tavsiyalar tizimini ishlab chiqishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi va bu ishni to‘la to‘kis bajarishga muvofiq bo‘ladi.

Bitiruv ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, metodolik asosi, metodi haqida ma’lumot bergan. Ishning asosi ikki bobda

ochib berilgan bo‘lib, “Ona tili darslarida matn va uni o‘rganish usullari” deb nomlangan birinchi bobda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, matn yaratish va matn ustida ishlashning didaktik prinsiplari hamda ona tili ta’limining yangilangan mazmuni va unda matn yaratish muammosi haqida fikr bildirib, o‘z mulohazalarini misollar bilan izohlab bergan.

Ikkinchi bobda o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini oshirishda matn ustida ishlashning ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tgan.

Umuman olganda, matn ustida ishlashga oid muammolarni hal etishga qaratilgan bitiruv ishining kirish qismida kun tartibiga qo‘yilgan masalalar to‘lig‘icha hal qilingan.

Gulshoda Normanovaning “Ona tili mashg‘ulotlarida matn ustida ishlash” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi DTS talablariga to‘liq javob beradi. Unda ilgari surilgan fikrlar, tahlillar, izohlar, mavzuning dolzarbligini ta’minlagan. Ushbu bitiruv ishini YaDA hay’ati a’zolari oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

p.f.n.Q.M.Yadgarov

MUNDARIJA

1. Kirish-----	3-6
2. 1-bob. Ona tili darslarida matn va uni o‘rganish usullari -----	7-27
3. 2-bob. Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirish-----	28-51
4. Xulosa-----	52-55
5. Adabiyotlar ro‘yxati-----	56-58

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Normonova
Gulshodaning “ **Ona tili mashg‘ulotlarida matn ustida ishlash**”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Matnda til sathlarining barchasi muayyan darajada ishtirok etar ekan, ularni ko‘rish va kuzatish asnosida o‘quvchidagi tilni his qilish va matnni anglash qobiliyati o‘sadi. Har bir kishida tabiiy holda to‘g‘ri va savodli yozishga ehtiyoj mavjud. Yuqoridagi talablar asosida ish tutish esa mazkur talab va ehtiyojlar bilan mos tushadi. Shu manbadan kelib chiqib tayyorlangan. G. Normonovaning **Ona tili mashg‘ulotlarida matn ustida ishlashga** bag‘ishlangan bitiruv ishi dolzarbdir.

Bitiruv ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan ibirat bo‘lib, ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, metodologik asosi, metodi haqida ma’lumot bergan.

Ishning asosi ikki bobda ochib berilgan bo‘lib, “Ona tili darslarida matn va uni o‘rganish usullari” deb nomlangan birinchi bobda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, matn yaratish ustida ishlashning didaktik prinsiplari hamda ona tili ta’limining yangilangan mazmuni va unda matn yaratish muammosi haqida fikr bildirib, o‘z mulohazalarini misollar bilan izohlab bergan.

“Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirish” deb nomlangan. Ikkinchi bobda o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini oshirishda matn ustida ishlashning ahamiyati haqida to‘xtalib, kichik – kichik matnlar keltirish bilan izohlang.

Umumman olganda G. Normonovanning matn ustida ishlashga oid muammolarni hal etishga qaratilgan bitiruv ishining kirish qismida kun tartibiga qo‘yilgan masalalar to‘lig‘icha hal qilingan. Ishda badiiy matnni tahlil qilish uzviy va uzluksiz jarayon bo‘lishiga, unda o‘quvchilarning badiiy asarni xis qilish darajalarini e‘tiborda tutish shartligiga tayangan. Shunga bog‘liq holda o‘z fikrlarini bildirib, misollar bilan izohlab berganki bu ishning umumiy saviyasini yanada oshirgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, ushbu ishni yuqori saviyada yozilgan ishlar sifatida baholashni YaDA hay’ati a’zolaridan so‘rayman.

Ilmiy rahbar:

f.f.n. Sh.Haydarov